

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK

NABIYEVA MUNIRA

**KESIM KENGAYTIRUVCHILARINI ANIQLASHDA
SINTAKTIK POZITSIYANING O‘RNI**

5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: **B.M.Bahriddinova,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qarshi – 2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet	O‘zbek filologiyasi	Magistratura talabasi	M.Nabiyeva
Kafedra	O‘zbek tilshunosligi	Ilmiy rahbar	dots.B.Bahriddinova
O‘quv yili	2016-2017	Mutaxassisligi	o‘zbek tili va adabiyoti

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Ilmiy rahbar
Magistratura talabasi

B.M.Bahriddinova, ffn., dotsent
M.Nabiyeva

MUNDARIJA

Kirish

I bob. Gapni bo‘laklarga ajratish tarixi

1. Gapni bo‘laklarga ajratish haqidagi sintaktik nazariyalar tahlili
2. Gapni bo‘laklarga ajratish mezonlari va unda sintaktik pozitsiya masalasi

I bob bo‘yicha xulosa

II bob. Kesim kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovda tutgan o‘rni

1. Gap bo‘laklari iyerarxiyasi va unda kesimning mavqei
2. Gap kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni
3. So‘z kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni
4. Modal kengaytiruvchilar va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni

II bob bo‘yicha xulosa

III bob. So‘z va gap kengaytiruvchilarini aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o‘rni

1. Gap bo‘laklarini ajratishda sintaktik pozitsiyaning o‘rni
2. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarni aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o‘rni
3. Sodda va qo‘shma gaplarni ajratishda sintaktik pozitsiyaning o‘rni

III bob bo‘yicha xulosa

Xulosa

Ilova

Adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Sintaksisning azaliy muammolaridan biri fikr almashuv va aloqa-aralashuvning asosiy birligi – kommunikativ birlik bo‘lgan nutqiy gapning tarkibiy qismlarini ajratish, gap bo‘laklari va har bir bo‘lakning gap qurilishidagi o‘rni masalasidir. Tilshunoslikning nutq linvistikasi tarmog‘i jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan ayni vaqtda o‘zbek nutqining turli uslubiy shakllarida uchraydigan har qanday gapning sintaktik qurilishi tahlilida zamonaviy tadqiq usullaridan kelib chiqib yondashish muhim ahamiyatga ega. Modomiki, bugungi kunda ona tili ta’limi oldida ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish, o‘quvchining yozma va og‘zaki nutqiy savodxonligini oshirish vazifasi qo‘yilgan ekan, nutq sintaksisi muammolarini yoritish dolzarb vazifalardandir. Zero O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek, “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”¹.

Dissertatsiya mavzusi uzluksiz ta’lim bo‘g‘inlarida gap bo‘laklari tahlilida mavjud mezonlarga qo‘shimcha holda kesim kengaytiruvchilarining kesimga nisbatan joylashuvi - pozitsiyasidan kelib chiqib yondashishga bag‘ishlangani bilan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dissertatsiyaning tadqiq ob’ekti jahon tilshunosligida bugungi kungacha gap bo‘laklarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ishlar, predmeti o‘zbek nutqi, hozirgi o‘zbek adiblari asarlari hamda vaqtli matbuot tilida keng ishlatiladigan gapning turli-tuman ko‘rinishlari.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Nutq shu qadar cheksiz va rang-barang ko‘rinishlarga egaki, ularning barcha ko‘rinishlarini mavjud qoidalarda jamlab olishning imkoni yo‘q. O‘qitish jarayonida shunday nutq parchalariga duch kelamizki, ularni gap bo‘laklariga ajratishda darsliklardangina o‘zlashtirilgan

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlangan nutq, 1997 yil 29 avgust.

bilimlar bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Tadqiqotning bosh maqsadi o'zbek nutqining turli uslubiy shakllarida uchraydigan gaplarni gap bo'laklari tahlilida mavjud mezonlarga qo'shimcha holda kesim kengaytiruvchilarining kesimga nisbatan joylashuvi - pozitsiyasidan kelish chiqib tahlil qilish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni shart qilib qo'yadi:

1. Gapni bo'laklarga ajratish haqidagi sintaktik nazariyalarni tahliliy o'rganish;
2. Gapni bo'laklarga ajratish mezonlari va unda sintaktik pozitsiyaning o'rnini yoritish;
3. Gap bo'laklari iyerarxiyasi va unda kesimning mavqei masalasini oydinlashtirish;
4. Kesim kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovda tutgan o'rnini yoritish;
5. Gap bo'laklarini ajratishda sintaktik pozitsiyaning o'rnini yoritish;
6. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarni aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o'rnini ochib berish;
7. Sodda va qo'shma gaplarni ajratishda sintaktik pozitsiyaning o'rnini asoslash;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ma'lumki, ko'pgina tillarda gapga ta'rif berishda, avvalo, kommunikatsion vosita ekanligiga ta'kid beriladi. Uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida o'qitib kelinayotgan gapga berilgan milliy tavsifda o'zbek nutqida uchraydigan son-sanoqsiz gaplarning barchasini umumlashtiradigan belgi – hukm anglatish va kesimlik belgisiga qat'iy urg'u beriladi: "Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi"¹.

Ma'lumki o'zbek tilshunosligida gap bo'lagini aniqlashda qaysi turkum bilan ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i va gapdagi boshqa bo'laklarga nisbatan tobe-hokim munosabati muhim rol' o'ynaydi. Nutq lingvistikasiga e'tibor

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: "ILM ZIYO", 2010. –160 b. 19-bet

kuchayayotgan ayni vaqtda nutqning cheksiz reallashishlari bilan bog‘liq holatlarda mavjud mezonlargagina tayanish gap bo‘laklarini to‘g‘ri ajratishda ayrim muammolar mavjulgini ko‘rsatmoqda.

Keyingi tadqiqotlarda “sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a’zolarining qanday so‘zlardan ifodalanishigina emas, balki shu a’zolarining qanday sintaktik pozitsiyada (vaziyatda) kelishi ham gapning mazmuniy tuzilishi uchun ahamiyatli” ekaniga alohida e’tibor berilmoqda.

Aniqroq aytganda so‘zning gap bo‘lagi vazifasida kelishi uchun mustaqil so‘z turkumiga mansubligi, grammatik shakligina emas, uning gap markazi kesimga nisbatan joylashuvi, kesimning qaysi bo‘sh o‘rnini kengaytirishi ham muhim ahamiyatga ega. Ishda aynan mana shu masalani yoritish maqsad qilib olingan.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilida so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, sodda va qo‘shma gap qurilishi talqini bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p juz’iy masalalar F.Abdullayev, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, F.Kamolov, Sh.Rahmatullayev, A.G‘ulomov singari olimlar ishlarida va rahbarligida amalga oshirilgan N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Berdialiyev, I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, M.Qurbonova, E.Shodmonov, H.Abdullayev kabi olimlar tadqiqotlarida muhokama etilgan.

Dissertatsiya mavzusi bilan bevosita bog‘liq masalalar 1987-yilda A.Hojiyev va N.Mahmudovlarning “Semantika va sintaktik pozitsiya” maqolasida, 1988-yilda J.Omonturdiyev muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari tipologiyasi” qo‘llanmasida, 2009-yilda H.Usmonovning “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi” deb nomlangan doktorlik ishida, shuningdek, A.Nurmonov va S.Nurmonovalarning “Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida” maqolalarida, A.Nurmonovning “Gap haqidagi sintaktik nazariyalar” qo‘llanmasida tilga olinadi.

H.Usmonova gapning markaziy birligi bo‘lgan kesimning bo‘sh o‘rinlariga nisbatan “sintaktik pozitsiya” terminini qo‘llaydi. Uning bo‘sh o‘rinlarini

to'ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Bu vazifa kesimning bo'sh o'rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi¹.

Pozitsiyaga ko'ra gapni bo'laklarga ajratish masalasi o'zbek tilshunosligida o'tgan asr oxirlarida ham ilgari surilgan edi. Gap bo'laklarini, ularning turlarini belgilashda, bir qancha hodisalar hisobga olinishi, jumladan, sintaktik munosabatdagi holat va mazmun, grammatik aloqaga kirishgan so'zlarning qaysi turkumga kirishi va formasi, gapdagi o'rni, intonatsion xususiyati muhimligi; mazmun jihatdan kesim birinchi o'rinda turishi, boshqa bo'laklarning darajasi uning kesimga yaqin turishi bilan ham bog'liqligi A.G'ulomov va M.Asqarovalar² gap bo'laklarini belgilashda, ularni gap strukturasi to'g'ri va obyektiv tayin etishda gapni pozitsion struktura ekanligidan kelib chiqish maqsadga muvofiqligi A.Hojiyev va N.Mahmudovlar³ tomonidan kun tartibiga qo'yilgan.

Xususan, taniqli tilshunos J.Omonturdiyev gap bo'laklari tipologiyasi xususida to'xtalar ekan, gap bo'laklarini to'g'ri tahlil qilish va ajratish sintaktik qayta bo'linish hodisasi bilan ham bog'liqligiga urg'u beradi. Ya'ni, so'zlarning biror bo'lak bo'lishga xoslangan funksiyasi doimiy emas, gapda biror bo'lak deb qaraladigan so'z davr o'tishi bilan forma tomondan o'zgarib, oldingi vazifasini bajarmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Olim ma'lum bir bo'lakning qayta funksiyalanish natijasida gapda boshqa bo'lak vazifasida kelishiga nisbatan sintaktik qayta bo'linish terminini qo'llaydi⁴.

H.Usmonovanning doktorlik ishida "sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a'zolarining qanday so'zlardan ifodalanishigina emas, balki shu a'zolarining qanday sintaktik pozitsiyada (vaziyatda) kelishi ham gapning mazmuniy tuzilishi uchun ahamiyatli" ekaniga alohida e'tibor beriladi⁵. Ishning asosiy maqsadi gap bo'laklarda propozitsiya hodisasini yoritish bo'lgani sababli, bu masalaga chuqur kirilmaydi.

¹ H.Usmonova. "O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi" f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b. B-7

² A.Фулломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. 256 б. В-71-72;

³ Ҳожиев А., Маҳмудов Н. Семантика ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1987.-№2 .

⁴ Ж.Омонтурдиев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. –Т.: "Ўқитувчи", 1988. 209 б. В-33-34

⁵ H.Usmonova. "O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi" f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

Dissertatsiyada qo'llanilgan uslublar. Tadqiqotda jahon tilshunosligida keng qo'llanayotgan sistem-struktur metoddan va uning tarkibiy qismi bo'lgan oppozitsiya, transformatsiya, komponent tahlil, differensial-semantik, tipologik, qiyoslash va distributiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Ushbu mavzu bugungi o'zbek tilshunosligining ustuvor yo'nalishi sanalgan va Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi" muammosi tarkibiga kiradi.

Dissertatsiyani bajarish uchun O'zbekiston Prezidentining asarlari, «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», milliy qadriyatlar, ma'naviyatni yuksaltirish va targ'ib etishga doir dasturiy qarashlari, ta'lim bilan bog'liq turli davlat dasturlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari oliy o'quv yurtlarining "Hozirgi o'zbek tili" fanining sintaksis bo'limini o'qitishda, uzluksiz ta'limning akademik litsey bosqichi 3-kurs talabalari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanini o'qitishda, shuningdek, maktabda gap bo'laklarini o'qitishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda o'zbek nutqining turli-tuman qo'llanishlarida uchraydigan gaplarni tilshunoslikning so'ngi yutuqlari asosida tahlil qilish o'z ifodasini topdi. Ishdan shu sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, magistrilar, "Ona tili" fani o'qituvchilari keng foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Gapni bo'laklarga ajratish haqidagi sintaktik nazariyalar tahliliy o'rganildi;
2. Gapni bo'laklarga ajratish mezonlari va unda sintaktik pozitsiyaning o'rnini yoritildi;
3. Gap bo'laklari iyerarxiyasi va unda kesimning mavqei masalasini oydinlashtirildi;
4. Kesim kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovda tutgan o'rnini yoritildi;

5. Gap kesimini qaysidir bo'shlig'ini to'ldirib kelayotgan birlik qanday so'z bilan ifodalangan bo'lishidan qat'iy nazar gapda bo'lak mavqeida kelishi mumkinligi asoslandi;
6. Gap uchun shu gapni tashkil etgan qismlarning tashqi tomoni qanday ahamiyatga ega bo'lsa, ularning gap kesimiga nisbatan egallagan vaziyati ham shunchalik ahamiyatli ekanligi ochib berildi;
7. Tenglanish qatoridagi so'zshakllar sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo'lmasada, ular bir hokim uzvga tobelansa va o'zaro teng aloqaga kirishsa, uyushiq bo'laklar bo'la olishi yoritildi.

Dissertatsiya tarkibi. Dissertatsiya kirish, asosiy qism (uch bob), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni respublika ilmiy jurnallarida e'lon qilingan maqolalar, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining turli ilmiy-uslubiy, amaliy, nazariy anjumanlari materiallarida o'z aksini topgan.

I BOB. GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH TARIXI

Til belgilar sistemasi sifatida e’tirof etilganidan buyon lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan tan olindi. Lingvistik belgilar qatorida gap ham alohida o‘rin egallab, boshqa lingvistik belgilar qatori shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmi o‘zbek tilshunosligida lingvistik belgilarning ko‘proq shakl tomoniga e’tibor qaratildi, mazmun jihati esa ahyon-ahyondagina esga olindi. 80-yillardan boshlab ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilindi, natijada sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabatini tadqiq etishga bag‘ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi¹. Ularda sintaktik birliklarni shakl va mazmun jihatdan modellashtirish, shakliy va mazmuniy birliklarning o‘zaro munosabatini belgilash muammolarini yoritishga e’tibor qilindi.

Lisoniy birliklarni sistema sifatida tadqiq etish, uni tashkil etgan ichki uzvlarning o‘zaro munosabatini belgilash hozirgi o‘zbek nazariy tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda, sintaktik birliklarning, xususan, “propozitiv nomlanish” deb yuritiladigan birliklarning gap tuzilishidagi o‘rni, ularning ichki uzvlariga xos butun ichidagi o‘zaro mazmuniy va shakliy munosabatini belgilash hamda xarakterli xususiyatlarini ochish muhimdir. Sintaksisning azaliy muammolaridan biri fikr almashuv va aloqa-aralashuvning asosiy birligi - kommunikativ birlik bo‘lgan nutqiy gapning tarkibiy qismlarga ajratish gap bo‘laklari va har bir bo‘lakning gap qurilishidagi o‘rni masalasidir.

O‘zbek tilida so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, sodda va qo‘shma gap qurilishi talqini bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p juz’iy masalalar F.Abdullayev,

¹ Нурмонов.А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Т.: Фан, 1982.- 152 с; Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларнинг семантик-синтактик асимметрияси.– Т.: Ўқитувчи, 1984 -146 б.; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. - 99 б.; Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992; - 292 б.; Бердиалиев А. Эргаш гапли кўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика.-Т.: Фан,1989. – 107 б.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф.-Т., 1998. 48 б; Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал – функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т., 2001. - 51 б.

G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, F.Kamolov, Sh.Rahmatullayev, A.G'ulomov singari olimlar ishlarida va rahbarligida amalga oshirilgan J.Omonturdiyev, I.Toshaliyev, B.To'ychiboyev, D.Muhamedova, E.Shodmonov, H.Abdullayev kabi olimlar tadqiqotlarida muhokama etildi, muayyanlashtirildi. Pirovardida, o'tgan asrning 70-yillariga kelib, formal tahlil usuliga tayangan o'zbek sintaktik nazariyasi va o'zbek tili sintaktik qurilishining talqini tugal shakllandi, 1976-yilda nashr etilgan ilmiy grammatikasida¹ umumlashtirildi, formal tahlil yutuqlari asosida o'zbek tili sintaktik qurilishining boshqa tadqiq metodlari, jumladan, sistem-struktur tahlil usullari bilan chuqurlashtirish, formal tavsif asosida qator ustqurma tahlillarda tilimiz sintaktik qurilishidagi turli-tumn paradigmalarni va paradigmatic munosabatlarni ochish ishlariga zamin hozirlandi.

Formal sintaktik tavsif natijalariga tayanib, o'zbek tili sintaksisi bo'yicha amalga oshirilgan va katta ilmiy samaralar bergan yo'nalishlar sifatida sistem-struktural tahlil usullariga tayanib olib borilgan semantik sintaksis va valentlik bo'yicha tadqiqotlarni alohida sanab o'tish lozim. Bu sohalarda N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Berdialiyev, D.Lutfullayeva, A.Ahmedov, I.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, M.Qurbonova, A.A.Salkalamanidze, S.Sultonsaidova, S.Muhamedova, H.Usmonova kabi olimlar erishgan yutuqlarning ilmiy salohiyati o'zbek tilshunosligidagina emas, slavistika va germanistika – umuman til qurilishi tahlil nazariyasida o'ziga xos ahamiyatga molikligi, mustaqilligi bilan ajralib turadi.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2-том. Синтаксис. – Т.: Фан, 1976

1.2. Gapni bo‘laklarga ajratish haqidagi sintaktik nazariyalar tahlili

Til qurilishining mohiyatini ochishda gap bo‘laklari muammosi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shuning uchun ham gap bo‘laklari nazariyasi tilshunoslarning hamisha diqqat markazida bo‘lib kelgan. Birgina gapning sintaktik qurilishida bosh bo‘laklarning o‘rni masalasini olib ko‘radigan bo‘lsak, turli sintaktik nazariyalarda ularga turlicha yondashilganligini ko‘ramiz. “... bu masalada, asosan, uch nuqtai nazarni qayd etish mumkin, ya’ni: 1) gapda ega absolyut hokim, kesim ham unga tobe; 2) ega va kesim o‘rtasida muayyan teng huquqlilik mavjud; 3) gapning haqiqiy “xo‘jayini” kesimdir”¹.

Hatto gap bo‘laklari tasnifi ham tilshunoslik tarixida turlicha yondashuvlarga sabab bo‘lganligini kuzatamiz. Hozir fanimizda gapning tarkibiy (struktur) qismlarini ajratishda:

- a) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, bog‘lanmagan bo‘laklar;
- b) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, uchinchi darajali bo‘laklar;
- v) gap bo‘laklari va bo‘lakning bo‘laklari;
- g) funksional va nofunksional (amaliy va noamaliy) bo‘laklar;

d) gapning markazi, gap kengaytiruvchilari va so‘z kengaytiruvchilari kabilarni farqlash nazariyalari keng ommalashgan. Fanda shakllangan va ma’lum davr yashagan har bir ilmiy yondashuv va yo‘nalishning, har bir talqinning o‘ziga xos asosi mavjudligi fanlar tarixidan ma’lum. Shuning uchun fanda ko‘p yo‘nalishlilik shakllangan va rivojlangan davrda turli xil talqin va tavsiflarni qiyosiy o‘rganish, har bir yo‘nalishdan unumdor talqinlarni saralash va ulardan sohaning chigal masalalari yechimini berishda oqilona va tadbirkorona foydalanish alohida ahamiyat va mohiyat kashf etadi va ilmiy taraqqiyotning keskin ilgarilashiga va yuksalishiga turtki bo‘ladi.

Tadqiqotchi H. Usmonovning “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi” deb nomlangan doktorlik ishi sintaksisning eng chigal masalalaridan biri bo‘lgan shakl va mazmun, struktur va pozitsion asimmetriya yorqin namoyon

¹ N.Mahmudov. Kesimning gapdagi maqomi. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2009 yil, 1-son. B-44-56

boʻladigan masalalaridan biri gapning struktur qismlarini aksariyat gaplarda transformatsiyalangan boʻlaklar bilan toʻldirish, gapning yuza qurilishida bunday boʻlaklarni ajratish, ularning ichki qurilishini hamda gapning umumiy qurilishidagi oʻrnini aniqlashga bagʻishlangan. Unda gapning struktur elementlarini (tarkibiy qismlarini) ajratishda struktur va pozitsion asimmetriya (tuzilish va mavqe nomutanosiblik) muammosi nuqtai nazaridan yondashiladi¹.

Sintaksis tarixida gapning tarkibi, uning tahlili har doim muhim oʻrin egallab kelgan. Sintaksisning shunday fundamental muammolari - birlamchi sintaktik tahlil, sintaktik aloqalar tushunchalari, gap boʻlaklarining iyerarxiyasi, gapning tuzilishi prinsiplari har xil sintaktik maktablarda koʻrib chiqilgan. Tilshunoslik sohasi rivojlanishi bosqichlarining har birida, gap boʻlaklarini ajratish masalasida xilma-xilliklar kuzatilgan.

Qadimgi yunon olimlari sintaksisda mantiqiy yoʻnalish asoschilari boʻlib, ularning fikricha, darak gapning maʼnosi bu – mulohazani bildiradi, mulohaza esa shaxsiy – maʼnoviy strukturaga ega: bir tarafda mulohaza bu – shaxs, ikkinchi tarafda maʼno. Mantiqiy yoʻnalish tarafdorlari gapning bosh boʻlaklari deb ega va kesimni belgilaydilar. Ega va kesim tushunchasini ular shaxs va maʼno bilan mantiqiy bogʻliq deb taʼkidlaydilar. Binobarin, gapda mantiqiy fikrlash strukturasi aksini koʻrish mumkin. Mantiqiy subyekt, grammatik subyekt bilan, yaʼni ega bilan oʻxshashdir. Mantiqiy fikr grammatik fikr bilan, yaʼni kesim bilan oʻxshashdir. Keyinchalik, Aleksandr davrida Dionisiy Frakiyskiy gapga tugallanmagan fikr soʻzlar birikmasi deya taʼrif berdi.

Yunon olimi Appoloniy Diskol ulkan eʼtiborni sintaksis muammosi, yaʼni gapdagi alohida soʻzlar tarkibiga qaratdi. Sintaksis nazariyasining rivojlanishida gapning tahlili va aniqlovchisi muhim oʻrin egalladi. Gap bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga boʻlindi. Gap tahlilining bunday anʼanaviy negizi qadimiy yunon tilshunoslaridan meros boʻlib qolgan. Gap tahlili uning mantiqiy shakliga qaratilgan. XIX asrning ikkinchi yarmigacha, yaʼni ratsional falsafiy rivojlanish

¹ H.Usmonova. “Oʻzbek tilidagi gap boʻlaklarining pozitsion strukturasi” f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

va tilshunoslik hukm surgan davrda, mantiqiy yo‘nalish sintaksis sohasida alohida rivojlandi.

Tilshunoslik tarixida ratsional grammatikaning vujudga kelishi, grammatik g‘oyalar rivojlanishining zaruriy bosqichi bo‘ldi. Birinchi ratsional yoki universal grammatika, 1660-yil Arno va Lanslo muallifligi ostida chop etilgan. Biroq, ratsional grammatikaning asoslari, tilshunoslikka psixologik tarafdin yondashgan namoyondalar tomonidan jiddiy tanqid qilindi. Ammo, uning barcha kamchiliklariga qaramasdan, ratsional grammatika tilshunoslik rivojlanishida yangi bosqich ochdi va milliy grammatik udumlar vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Keyingi davrda turli mamlakatlarda ko‘phadli “umumiy”, “falsafiy”, “ratsional” deya nom olgan grammatikalar paydo bo‘ldi.

Gap bo‘laklari haqidagi ta‘limot nemis grammatikasiga Karl Bekkerning “Organismus der sprache als Eibleitung zu der gramatik” (1827) asari bilan kirib keldi. Ungacha grammatiklar faktorlarga asoslangan holda faqatgina shaxs va ma‘no tushunchasini mantiqan tahlil qilar edilar. Obyekt haqidagi tushuncha hali yaqqol tasvirlanmagan edi. Mantiqdan kelib chiqib Karl Bekker gap bo‘laklarining haqiqiy ta‘limotini berishga erishdi.¹

Gap bo‘laklarining klassifikatsiyasini Bekker uch xil o‘zaro sintaktik munosabat aniqlanadigan asosda tuzadi: ma‘noviy, atributiv, obyektiv. Bekker o‘z ta‘limotini rivojlantirish jarayonida gap bo‘laklarini 4ta: ega, kesim, to‘ldirovchi, aniqlovchi deb belgilaydi. Aytib o‘tish joizki, Bekkerning gap bo‘laklari sistemasi hozirgacha maktab ko‘p tillardagrammatikasida ishlatib kelinmoqda.

Rossiyada mantiqiy-grammatik yo‘nalishning namoyondasi F.I.Buslayev (1818-1897) edi. Rus lingvistik an‘anasida uzoq vaqtgacha F.I.Buslayev tomonidan gapga “so‘zlar orqali bildiriladigan mulohaza” deya ta‘rif berilgan. Uning 1858-yilda nashr etilgan “Rus tilining tarixiy grammatikasi” asarida kesimsiz hukm ifodalana olmaganligi uchun ham tilda faqat kesimdan iborat gap mavjud, ammo faqat egadan iborat gap bo‘lmasligi ta‘kidlanadi².

¹ Рождественский Ю.В. Лекции по языкознанию. –М., 1989

² Хрестоматия по истории русского языкознания. М., 1973. С. 154

Fikrning tildagi aks etish shakli – mantiqiy tahlil konkret tilning tarkibiga borib taqaladi. Gapning strukturasi soʻzlarning bogʻliqligi, shakli, boʻlaklarning bogʻlanishi, grammatik qoidalar hisobiga hosil boʻladi. Gapning sintaktik strukturasi gapning boʻlaklari, logik subyekt va predikat hisoblanadi. Gapning sintaktik strukturasi kuzatganda gap boʻlaklari faqatgina soʻzlarning oʻzaro morfologik koʻrsatkichlari, gap qurilishida ikkilanish boʻlinishini isbotlaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida lingvistikada gapning psixologik tushunchasi va turlanishi keng tarqalgan edi. XIX asr oʻrtalarida Vilgelm Gumboldt gʻoyasi ostida tilshunoslikda psixologik nazariya mantiqiy yoʻnalish taʼlimotiga reaksiya sifatida vujudga keldi. Psixologik yoʻnalish tilshunoslari nemis olimi G.Shteyntal va taniqli rus olimi A.A.Potebnya, birinchi boʻlib mantiqiy sintaksisga qarshi tanqid bilan kirib keldilar. G.Shteyntal A.A.Potebnyaga oʻxshab fikr va gapning oʻzaro bogʻliqligi haqidagi mantiqiy sintaksis namoyandalari qarashini tanqid qilib, grammatik mulohazaning umuman mantiqiy mulohazaga oʻxshashligi yoʻq deya taʼkidladi. A.A.Potebnya gapning aniqlovchisini aniqlashdagi qiyinchiliklarning talaygina obyektiv sabablarini belgilab qoʻydi. A.A.Potebnya gap boʻlaklarini shaxsiy grammatik belgisi orqali aniqlashga harakat qildi.

Psixologizm G.Paul nazariyasida markaziy oʻrinni egallaydi. Paulning aytishicha, gapning psixologik egasi ham, psixologik kesimi ham, aniq grammatik shakli bilan bogʻlangan emas va har vaqt uni oʻzgartirib turish mumkin. Gap grammatik va psixologik tarkibi jihatdan turli tillarda turli xarakterga ega, yaʼni tilning grammatik tuzilishiga bogʻliq¹.

Gap muammolarining formal-grammatik rivojlanishi va oʻzgarishi nuqtai nazaridan va uning boʻlinishida taniqli rus lingvisti F.F.Fortunatovning grammatik taʼlimoti nufuzli oʻrin egallaydi. F.F.Fortunatov gapni soʻz birikmasidan grammatik ega va kesimga egaligi bilan farqlaydi. U tilshunoslardan birinchi

¹ Пауль Г. Принципы истории языка.- М., 1960.-340с.

bo‘lib so‘zni so‘z birikmalaridan ajratuvchi formal mezonlarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldi¹.

Gap bo‘laklarning ajratilishi nutq jarayonida muayyan gap bo‘laklari mazmuni aniqlashtirish va jumlaning asosiy mazmuniga qo‘shimcha mazmunlar berishdir. Ajratilgan bo‘laklarga predikatsiya kamroq bo‘ladi. Har bir gap bo‘lagining ajratilishi va qo‘shimcha mazmunlarning hosil qilinishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, mantiqiy obyekt (ega) predikat tushunchalari o‘zaro nisbiy bog‘langandir. Agar bu ikki tushuncha yakka holatda olinadigan bo‘lsa, hukm, ifodalay olmaydi. Masalan, yakka olingan “kino”, “film”, “kino” tushunchasi subyekt hukm, “san’at”, “art”, “iskusstvo” tushunchasi predikat hukm bo‘la olmaydi. Agar biz “kino san’atdir”, “film is art”, “kino iskusstvo” desak, bunda ikki tushunchaning o‘zaro dialektik munosabati ma’lum bir hukmni tashkil etadi, ya’ni, bunda “kino” hukmning subyekt elementi, “san’at”, “art”, “iskusstvo” uning predikat elementiga aylanadi. Ammo gapning semantik tuzilishida faqat predikatning o‘zi ma’lum propozitsiyani ifodalab, u subyektini ham ko‘rsatib turishi mumkin. Yuqorida subyekt juda umumiy tushuncha ekanligi, uning juda ko‘p va xilma-xil vaziyat elementlarini o‘z ichiga birlashtirishi aytib o‘tildi. Ammo, lingvistik adabiyotlarda subyektning ma’nolar sistemasi turlicha talqin qilinadi.

Mavjud grammatik adabiyotlarda subyekt atamasi xilma-xil talqin etiladi. Bir o‘rinda bu atama ostida ega, boshqasida harakat qiluvchi, yana boshqasida belgini yaratuvchi ma’nolar tushuniladi. Bular ichida subyekt bilan egani tenglashtirish eng ko‘p uchraydi. Fe’llar gapda doimo predikat bo‘lib keladi. Bu fe’l predikatlarni belgilashda hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ammo ot doimo predikat vazifasida kelavermaydi. Otlar ikki xil vazifada – predikat va predikat (argument) sifatida kelishi mumkin. Demak, gap bo‘laklarini tilshunos olimlarimiz qanchalik chuqur o‘rganib chiqishlariga qaramasdan, unda yechimini topmagan muammolar

¹ Распопов И.П. Актуальное членение и коммунокативно-синтаксические типы предложений в русском языке. Докторская диссертация. М. 1964.-350с.

hali ham mavjud. Bugungi kunda gap bo‘laklarini nutq lingvistikasi yo‘nalishida tadqiq qilish ayrim ochilmagan qirralarini yoritishga asos bo‘ladi.

Gap bo‘lagi gap qurilishi, uning grammatik-semantik mundariyasi bilan birga – uzviy shakllanadigan, butunlikka (gapga) nisbatan nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan, muayyan so‘roqqa javob bo‘ladigan sintaktik (funktional) birlikdir.

O‘zbek tilshunosligida gapning sintaktik tuzilishini gap bo‘laklari termini ostida o‘rganish an‘ana tusini olgan va unga hozirgi kungacha hech qanday e‘tiroz bo‘lmagan. O‘zbek tilining haqiqiy ilmiy sintaksisining yaratilishi prof. A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarovalar nomi bilan bog‘liqdir. Gap bo‘laklarining o‘rganilishida A.G‘ulomovning xizmatlari katta. Prof. A.G‘ulomovning sintaktik qarashlari rus tilshunoslari, xususan, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov g‘oyalari ta‘sirida shakllandi. Shuning uchun ham A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradovlarning gap bo‘laklari haqidagi qarashlari o‘zbek tilshunosligiga tatbiq etildi.

Aniqllovchi, to‘ldiruvchi atamaları professor A.G‘ulomov tomonidan o‘zbek tilshunosligiga kiritildi. A.G‘ulomov ham gap bo‘laklarini belgilashda tobelanish munosabatidan tashqaridagi gap unsurlarini gap bo‘laklari tarkibiga kiritmadi. Gap bo‘laklari gap tuzilishidagi rollariga qarab bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘lindi. Bosh bo‘laklarga ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklarga esa aniqllovchi, to‘ldiruvchi va hol kiritildi.

Ayrim mualliflar esa, an‘anaga ko‘ra aniqllovchilarning bir turi sifatida o‘rganib kelingan izohlovchilarni ham alohida gap bo‘lagi sifatida ajratishga harakat qildilar. Xususan, R.Saidovanning ta‘kidlashicha, ot yoki substantiv so‘zlardan ifodalanib, boshqa ot bilan tobe munosabatga kirishgan gap bo‘lagi izohlovchi sanaladi¹.

O‘zbek tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham gapning tarkibida tobe vaziyatda muayyan so‘roqqa javob bo‘luvchi har qanday ikkinchi darajali bo‘lak gap tarkibidan bir vaqtda ajratiladi. Bunday ajratish ko‘pchilik uchun odatiy holga

¹ Саидова Р.Х. Приложение в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т, 1975. – С.5.

aylandi. Masalan: *Oqil kishi dono, oliyjanob, rostgo'y kishilarga do'st bo'ladi* jumlasida ikki bosh bo'lakka - kishi (ega) va do'st bo'ladi (kesim)ga ajratilishi bilan birga kishilarga, (to'ldiruvchi) oqil, dono, oliyjanob, rostgo'y (aniqlovchi) singari ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi. Dastlab gap tarkibidagi bosh bo'laklar aniqlanadi va undan so'ng gapning ikkinchi darajali bo'laklari belgilanadi. Ikkinchi darajali bo'laklarni belgilashda ularning gap yoki uning bir qismining bo'lagi ekanligi hisobga olinmaydi.

An'anaviy tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonlarini ayrim turkologlar payqaganlar va aniqlovchining gapning konstruktiv bo'lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, A.N.Baskakov fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat'i nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o'zining sintaktik pozitsiyasiga ega bo'ladi va aniqlovchi bilan birgalikda bir butun holda bir gap bo'lagi sanaladi. N.K.Dmitriyev ham aniqlovchi-aniqlanmish munosabati gapning tuzilishi doirasiga kirmasligini ta'kidlagan edi.

Ba'zi o'zbek tilshunoslari ham ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi maqomi borasida an'anaviy qarashlarga tanqidiy munosabatda bo'ldilar. Xususan, prof. Sh.Rahmatullayev 1970-yildayoq gap bo'laklarini, asosan, ikkinchi darajali bo'laklarni ajratishda mavjud qarashlarga tanqidiy nuqtai nazardan qaragan edi. Jumladan, u quyidagilarni yozadi: "...Shuni ta'kidlash kerakki, sifatlovchiga so'roqni sifatlanmishdan kelib chiqib beramiz. Demak, sifatlovchining so'rog'i ma'lum ma'noda ichki so'roq bo'ladi. Biror bo'lak vazifasida sifatlovchili birikma keladi. Sifatlovchiga beriladigan so'roq ana shu bo'lak vazifasida kelgan birikmaning ichki tuzilishiga doir bo'ladi.

Yuqorida aytilgan ichki xususiyat (tartib erkinligining yo'qligi va ichki so'roqqa javob bo'lishi) sifatlovchining sintaktik mohiyatini belgilab qo'yadi. Sifatlovchi birikma tarkibidagi bo'lakning bo'lagi bo'lib keladi. Sifatlovchining o'ziga xos ayrimliklari borligidan kelib chiqib, uni bir vaqtlar uchinchi darajali bo'lak deb ham yuritishgan, ammo keyinchalik bu tushuncha va termindan voz kechilgan. Aslida bu termin hodisaning mohiyatini aniq ochib bermaydi. Bizningcha, sifatlovchini (kengroq olsak, aniqlovchilarning barcha turlarini)

gapning bo‘lagi deb emas, birikmaning bo‘lagi deb atash to‘g‘ri. Agar hozirgina ta‘kidlangan fikrga qo‘shilsak, sifatlovchi o‘z sifatlanmishi bilan birgalikda bir bo‘lak vazifasida keladi, deb umumiy bir qoida chiqarish mumkin. Bu bilan gapni sintaktik tahlil qilish ancha osonlashadi, birikmaning gap uchun (asli bo‘lak uchun) qurilish materiali sifatida xizmat qilishini tan olgan bo‘lamiz¹. Prof. N.Mahmudov aniqlovchilarni gapning konstruktiv bo‘lagi hisoblamagani holda, to‘ldiruvchi va hollarning ham gapdagi vazifasini farqlash lozimligini ko‘rsatadi². Uning ta‘kidlashicha, ikki va undan ortiq predikat qatnashganda, ulardan biri asosiy, qolganlari ikkinchi darajali holatda bo‘ladi. Lekin har bir predikat, u xoh asosiy, xoh ikkinchi darajali bo‘lsin, muayyan obyekt munosabati bilan bog‘liq sanaladi.

Bu holat, tarkibida ikkinchi darajali predikatli sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar (oborotlar), harakat nomlari va shart fe‘lli qurilmalar, shuningdek, predikativ so‘zlar (bor, yo‘q singari so‘zlar) bilan shakllangan qurilmalar mavjud bo‘lgan sodda gaplarda kuzatiladi. Masalan: *Uning dardini yengillatadigan so‘zni inson bolasi hali yarata olgani yo‘q* (S.Ahmad) gapida ikkinchi darajali predikatli uning dardini yengillatadigan sifatdosh oboroti ishtirok etgan. Gapda ikkita predikat mavjud bo‘lib, ulardan biri, ya‘ni yarata olgani yo‘q fe‘l shakli bilan ifodalangani asosiy (kesim vaziyatida), ikkinchisi, ya‘ni yengillatadigan shakli bilan ifodalangani esa ikkinchi darajalidir. Asosiy predikat so‘zni so‘z shakli orqali ifodalangan obyekt munosabati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi darajali predikat dardini so‘z shakli orqali ifodalangan vositasiz obyekt munosabati bilan bog‘liq. Ammo bu ikki obyekt predikatlarga munosabati jihatidan aynan o‘xshash bo‘lsa ham, ularni bir-biri bilan mutlaqo tenglashtirish mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki mazkur predikatlarning o‘zi mavqei jihatidan bir-biri bilan aynan teng emas, ya‘ni biri asosiy, ikkinchisi esa ikkinchi darajalidir. Shuning uchun ham mazkur gapning sintaktik tuzilishida ikkita aynan bir maqomga ega bo‘lgan vositasiz to‘ldiruvchi mavjud, deb qarashning o‘zi ilmiy asosga ega emas. Muallif to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, bunday to‘ldiruvchilar funksionallik jihatidan ham bir-biridan farq

¹ Раҳматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. – Т., 1970. – Б. 19-20.

² Маҳмудов Н. Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. – №1. – Б. 44.

qiladi. Ikkinchi darajali predikatlar tobe vaziyatni egallaydi. Shunga ko'ra muayyan sintaktik vaziyatdagi bunday qurilmalar gapning yoyiq, birikmali, kengaytirilgan bo'laklari sifatida baholanadi¹. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomli, shart fe'lli o'ramlarning gap tarkibida bir butun holda, bir sintaktik vaziyatni egallashi, bir bo'lak deb baholanishi, bunday o'ramlarning ichki bo'linishlari butun gap uchun nofunktsional, faqat o'ramninggina ichki bo'linishi ekanligi prof. A.Nurmonov tomonidan ham ko'rsatilgan edi². Keyinchalik bunday o'ramlarning transformatsion bo'laklar ekanligi va gap tarkibida bir bo'lak vazifasini bajarishi boshqa mualliflar tomonidan ham bayon qilindi³. Ayrim mualliflar shunday va shunga o'xshash qurilmalarni deskripsiya atamasi bilan nomladilar va ularning sintaktik pozitsiyalari, ichki tuzilishlarini o'rgandilar⁴.

Gap bo'laklari so'zlarning o'zaro birikish qonuniyatlari asosida gap ichida maydonga kelgan va gap tuzilishida uning maxsus komponenti sifatida qatnashadigan sintaktik kategoriyadir. Gap qismlari bo'lak sanalmog'i uchun ular bo'laklar bilan gap tuzilish qonuniyatlariga asosan grammatik-semantik munosabatga kirishishi, mustaqil vazifada qo'llanilishi va tahlilda bo'lak sifatida ajralishi kerak. Masalan, *Shoir o'zining ilhomini sevimli xalqidan oladi* (O.) gapida oltita so'z sintaksisning talabiga muvofiq grammatik-semantik munosabatga kirishgan va oltita bo'lakni hosil qilgan, gap ana shu bo'laklar asosida shakllangan.

Demak, bo'lak gapning uzviy qismi bo'lib, u bilan grammatik-semantik tomondan bog'langandir. Gap bo'lagi bilan gap qism bilan butunning munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat dialektik munosabatdir: butunsiz qism yo'q, qisimsiz butun yo'q, butun qismlardan tuziladi, qismlar butun ichida yashaydi. Juz'iylik umumiylikda, umumiylik juz'iylik orqasida mavjuddir.

¹ Махмудов Н. Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. – №1.- Б. 44; Яна қаранг: Асқарова М. Бирикмали гап бўлаклари ва унинг эргаш гапларга муносабати. - Тилшунослик масалалари.– Т., 1970. - 119-128-бетлар; Абдуллаев Х. Гап бўлақларининг тузилишига кўра таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. - №3. – Б. 34.

² Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. - 99 б.

³ Муҳаммадиева М. Трансформационные предложения в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Т., 1985. 18 с.

⁴ Усмонова Х. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1994. - 127 б.

Gap bo'lagi so'z va so'z birikmalari bilan aloqador, shular bilan ifodalanadi. Bunda so'z turkumlari o'ziga xos bo'lgan sintaktik vazifalarga ega: otning ko'pincha – ega, to'ldiruvchi; fe'lning – kesim; sifatning – aniqlovchi; ravishning – hol bo'lishi kabi.

Gap sintaksisining talabiga ko'ra so'z va so'z birikmalari gapning biror bo'lagi vazifasida keladi, reallashadi, aniq bo'lak hosil bo'ladi. Biroq bundan so'z, so'z birikmalari bilan gap bo'laklarining tengligi kelib chiqmaydi: fe'l barovar kesim, ot barovar ega emas. Gap bo'lagi tushun-chasi uning materiali bo'lgan so'z va so'z birikmalari tushunchasidan tor. Chunki biror bo'lak, chunonchi, ega vazifasida ot va otlashgan hamma turkumlar ham qo'llanilishi mumkin.

Gap bo'lagi bo'lib kelgan so'z va so'z birikmalarining sintaktik mohiyati ularning gap tuzishdagi, gap ichidagi vazifalariga qarab belgilanadi. Gap tarkibidagi bir so'z shaklining o'zi shu so'zning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatiga ko'ra har xil gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Bu vazifalarni alohida-alohida olingan so'z birikmalari bo'yicha aniqlash hamma vaqt mumkin bo'lavermaydi. So'z birikmalari gap tarkibiga kirgandan keyin boshqacha holat yuz berishi mumkin.

So'z turkumlarini aniqlashda leksik-semantik belgilar e'tiborga olinadi. Gap bo'laklarini aniqlashda esa gapdagi vazifasi hisobga olinadi. Gap bo'laklari gapda, gapning qismi bo'lgan sintaktik kategoriya sifatida, so'z turkumlari esa lug'at sostavida leksik birlik sifatida qaraladi. So'zlar matndan tashqarida ko'p hollarda ko'p ma'noli, gapda – bo'lak sifatida bir ma'noli bo'lishi, aniq vazifa bajarishi mumkin. Gap bo'laklari gap singari nutq ichida hosil qilinadi, o'zaro munosabat jarayonida til birliklarining qo'llanilish mahsuli hisoblanadi.

Gap bo'laklarini o'rganish, umuman, gap to'g'risidagi ta'limotning ajralmas bir qismidir. Chunki gapning qismlarga ajratilishida shu gapda ifoda qilingan fikrning qismlarga ajratilishi o'z aksini topadi. Gapning har bir bo'lagi gapda ifoda qilingan fikrning tinglovchiga yetkazishda alohida o'rin tutadi.

Demak, gap bo'lagi so'z turkumi bilan o'zaro zich aloqada bo'lsa ham, ma'no va vazifa jihatdan boshqa-boshqa birliklardir.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida shakllangan sintaktik nazariyalar o‘zbek tili grammatik qurilishini turli tomondan o‘rganib, uning mohiyatini ochish borasida o‘z tadqiq metodologiyasi va usullari asosida ulkan ishlarni amalga oshirdilar va oshirmoqda. Qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar garchi ziddiyatli bo‘lsa-da, ular obyektiv serqirralik va ziddiyatlilik tabiatiga ega bo‘lgan sintaktik qurilishning turli tomonlarini yoritishi nuqtai nazaridan bir-birini to‘ldiruvchilar sifatida o‘ta qimmatli. O‘zbek tili sintaktik qurilishi mohiyatini idrok etish turli sintaktik yo‘nalishlarga xos xulosalarni umumlashtirish asosidagina amalga oshiriladi¹.

Sistem tilshunoslikda til va nutq hodisalarini farqlash asosiy mezon hisoblanadi². Dialektik qonuniyatlarga ko‘ra til aloqa-aralashuv vositasi sifatida umumiylik, nutq esa xususiylik belgisidir³. Har bir inson o‘z nutqini til orqali ifoda etadi. Shu sababdan bunday birliklarning farqli jihatlari aniqlab olinadi. Chunonchi, fonema, leksema, morfema, qolip til birliklarini tashkil etsa, harf, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap, mikrotekst va makrotekstlar nutq birliklarini tashkil etadi⁴.

Ko‘plab lingvistik tadqiqotlarda predikativlikni gap bilan aloqadorlikda, ya’ni gapning gapligini “ega-kesim” va “predikativlik” munosabatida o‘rganib kelishgan⁵. Ma’lumki, gap nutqiy hodisa sifatida g‘arb tilshunosligida ancha oldinroq atroflicha o‘rganilgan va ta’riflangan edi.

O‘zbek tilshunosligida, jumladan, A.G‘ulomovning gap sintaksisiga oid ta’limotida⁶ bu hodisalar to‘g‘ri farqlangan. Ammo unda “grammatik ega + kesimning logik subyekt + predikatga mos kelmaslik hollari tildagi real hodisa” ekanligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, “gapning xarakterli belgilari predikativlik va

¹ N.Yuldosheva. “Yig‘iq gapning formal-funksional talqini” f.f.n. diss... T., 2010

² Нурмонов А.Н. Лисоний бирликларда умумийлик-хусусийлик, мохият-ходиса диалектикаси//Ўзбек тили ва адабиёти. - 1995. -№ 1. - Б. 42-46.

³ Раҳимов Й. Мантик.-Тошкент: Университет, 1994. -243 б.

⁴ Нурмонов А.Н. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти, -1988. -№ 5. –Б. 22-26.

⁵ . Шодмонов Э., Абдурахмонов Х. Сўз-гап ва тўлиқсиз гап //Тошкент пед. инс-ти илмий асарлари. Т. 87. – 1972. – Б. 37-53; Ғуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. - Тошкент: Ўқитувчи, 1965. -309 б.

⁶ Ғуломов А.Ф. Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис -Тошкент: Ўқитувчи, 1987. -157 б.

intonatsiyadan iborat”ligi, bu belgilar gap tushunchasi uchun asos, gapni shakllantirish vositasi bo’lishi kabi bir-biriga zid fikrlarga duch kelinadi. Bizningcha, A.G’ulomov Yevropa tilshunosligi, jumladan, rus grammatikasi o’zbek tili uchun nazariy asos bo’lib xizmat qilayotgan o’sha davrda V.A.Admoning fikrini tasdiqlagan ko’rinadi. Jumladan, gap sintaksisini otaxon tilshunosimiz shunday ta’riflaydi: “Gapni predikatsiya shakllantiradi, bu grammatik kategoriya umuman gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko’rsatadi”¹. Biroq bu fikrga qo’shib bo’lmaydi, chunki har qanday holatda ham predikativlik mantiqiy hodisadir. Zero, unda mantiqiy omil birlamchi hisoblanadi. Uning asosida esa hukm yotadi. Shuning uchun ham u gapning grammatik asosini belgilashga xizmat qilmaydi. Bu fikrni tadqiqotchi-olima M.Abuzalova ham o’zining dissertatsiyasida tasdiqlaydi: “Predikativlik sof mantiqiy kategoriya bo’lib, harakat va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatlarning inson ongida aks etishidir”².

Kesimlik kategoriyasi predikativlik kategoriyasidan mohiyatan farq qiladi. Sistem tilshunoslikda, chunonchi, turkiy tillar grammatikasini o’rganishda bu kategoriya alohida grammatik kategoriya sifatida qaraladi. Ko’rib o’tganimizdek, bu kategoriya maxsus morfologik kategoriya hisoblanadi va uning ahamiyatli jihatlari formal-funksional tahlil mualliflari “Tezislar”ida ajratib ko’rsatilgan³. Undan ma’lumki, kesimlik kategoriyasi turkiy tillar uchun o’ziga xos o’zgacha qarash bo’lib, unda dialektik qonuniyatlar asosida lison//nytq hodisalari farqlanadi.

Avvalgi bandlarda o’zbek tilida gapning lisoniy bosqichdagi eng kichik qurilish qolipi [WRm] ekanligini ta’kidlab o’tgan edik. Shu asosga tayanib, sodda gapning nutqiy va lisoniy qurilishidagi farq va tafovutlar ochib berildi. Turkiy tillar oilasida eganing gap qurilishidagi zaruriy va majburiy bo’lagi hisoblanmasligini

¹ Yuqoridagi asar. 37-bet

² Abuzalova M. O’zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. -Toshkent, 1994.-68 b.

³ Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков: Тез. формально-функционал. исслед.//Сов. тюрк. -1984. -№ 5. – С. 5-10. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Халияров Х.Х., Махмудов Н.М. Нурманов Н., Сайфуллаева Р.Р. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса//Сов. тюрк. -1988. -№ 4. – Б. 3-8.

faqatgina shu kategoriya zamirida isbotlash mumkin. Shuning uchun bu kategoriya bir tarkibli gaplarni tamoman yangicha, turkona talqin etishga asos bo‘la oladi.

Mantiqiy “subyekt + predikat” (ya’ni predikatsiya, predikativ aloqa) ning mohiyatan “ega+kesim” (gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatdan farqlanishi Arastu zamonidan hozirgacha tilshunoslar va mantiqshunoslar tomonidan takror va takror ta’kidlanib kelinsa-da, amaliy grammatik talqinlarda tilshunoslar bu ikki hodisani tez-tez qorishtiradilar. Yuqorida biz o‘nlab tilshunoslarning gapga berilgan ta’riflarida “predikatsiya”, “predikativ aloqa” til uchun muhim hodisa qilib olinganligining guvohi bo‘ldik. Vaholanki, predikatsiya mantiqiy atama va mantiqiy hodisa in’ikosidir. Tilshunos yarim mantiqiy, yarim lisoniy, aralash-quralash hodisa bilan emas, balki lisoniy grammatik mohiyatni aks ettiruvchi tushuncha va hodisalar bilan ish tutmog‘i lozim. Ko‘rinib turibdiki, “gapning joni” [Pm] dadir. [Pm] gap kesimini, ya’ni uning markazini grammatik jihatdan shakllantiruvchi kategoriyaning son-sanoqsiz nutqiy ko‘rinishlari umumiy ramzidir. Bu umumiy ramzning muayyan shakllari nechta? degan savol tug‘ilishi mumkin. Biz bunga faqat bitta javob bera olamiz: uning nutqiy ko‘rinishlari cheksizdir. Tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma’nolari va qo‘shimchalarining nutqiy, ma’noviy va moddiy rang-barangligiga bu ramz neytral (befarqdir). Biz bu yerda o‘z izlanishimizga aloqador bo‘lgan bir xususiyatni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Bu ham bo‘lsa, [W] va [Pm] kabi alohida qismlar mavjud bo‘lishidir. Ma’lumki, mustaqil so‘zlar – ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l va taqlid so‘zlar turkumiga oid istagan bir so‘z gapda kesim vazifasida kela oladi va gap markazi mavqeini egallaydi. Bular haqidagi ma’lumotlarni o‘zbek tili sintaksisi bo‘yicha qalam tebratgan har bir tadqiqotchining ishidan topishimiz mumkin. Qiziq tomoni shundaki, [WRm] qolipida [W] ham, [Pm] ham nisbatan mustaqil bo‘lib, ular o‘zaro faqat gap markazi mavqeida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil mavqelarda kelishi mumkin. Lekin [Pm] qanday atov birligi bilan bog‘lanmasin, unga potensial gap mavqeini beradi. Shu bois [Pm] atov birligi vazifasida kela olmaydigan lisoniy birliklar (chunonchi, fonema, grammatik morfema va h.z.) bilan birika olmaydi. Biz bundan xulosa qila olamizki, [Pm] –

ya'ni kesimlik gapning negizini, asosini tashkil etadi. Demak, potensial gap mavqeini istagan [W] ga shu [Pm] beradi. [W] ning o'zi esa kesimlikka nisbatan befarqdir. Chunonchi, [o'quvchi] leksemasini olib ko'raylik. Bu leksema gapda qanday mav-qeda kelishiga nisbatan tamoman befarqdir; grammatik shakllanishiga ko'ra bu leksema gapda har xil o'rinni egallashi mumkin. Ta'kidlaganimizdek, u (W tush. kel.) ning hosilasi sifatida o'quvchini shaklida gapda vositasiz to'ldiruvchi, yoki (W qar. kel) ning hosilasi sifatida qaratqichli aniqlovchi mavqelarida kela oladi. Shuning-dek, [WRm] qolipining hosilasi sifatida *o'quvchiman, o'quvchi emasman, o'quvchi edim, o'quvchi bo'lsam* v.h. kabi minglab shakllarda kesim mavqeda ham kelishi mumkin. Demak, bunday gaplar qolipi [Rm] ning [W] ga nisbatan alohidaligi va kesimning kesimligi [Pm] bilan belgilanishi haqida muhim xulosa chiqarishga imkon beradi. Ya'ni gapni lisoniy bosqichida – umumiy qolip bosqichida shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi yoki [Pm]dir. Bunday yondashilganda, gap mohiyatini belgilash uchun mantiqiy predikatsiyaga murojaat qilishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shuning o'zi har qanday gapda tasdiq//inkor, mayl//modallik, zamon va shaxs//son ma'nolarining mavjudligini e'tirof etadi. Lekin gapning barcha turlarida ham kesimlik shakllari va qo'shimchalari bo'lishi shartmi? degan savolga javob berish qiyin. Chunki nutqimizda shunday gaplar borki, ularning tarkibida kesimlik va kesimlik qo'shimchalarining moddiy ko'rinishlarini ajratish mumkin emas. O'z-o'zidan tushunarliki, bu o'rinda "*Bahor. Kel. Ko'nglingni yoz*" matnidagi atov va buyruq gaplar nazarda tutilmaydi.

1.2. Gapni bo‘laklarga ajratish mezonlari va unda sintaktik pozitsiya masalasi

Tilshunoslik tarixida gap va uning bo‘laklarga bo‘linishi haqida turli qarashlar maydonga kelgan. Shunga qaramay, ularning deyarli barchasida gapning muhim belgisi sifatida predikativlik e’tirof etiladi. Predikativ ma’no ifodalovchi har qanday sintaktik shakl gap hisoblanadi. Lekin predikativlik nima, uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat, degan savolga javob berishda turli oqimlar maydonga keldi. Antik davrdan boshlab atributiv mantiq ta’sirida vujudga kelgan an’anaviy sintaktik nazariyada predikativlik deganda kesimning ega bilan munosabati, shaxs va sonda moslashuvi tushuniladi¹.

Gapning sintaktik tuzilishi shu kunga qadar gap bo‘laklari mezoni ostida o‘rganib kelindi. Gap bo‘laklari esa tobe bog‘lanish tarkibida, hokim bo‘lakka nisbatan belgilanadi. Bunga ko‘ra, gap bo‘laklari ikki darajaga - bosh va ikkinchi darajalarga ajratildi. Bugungi kunda gap bo‘laklarining bunday ajratilishida qator kamchiliklarning mavjudligi ma’lum bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham gapni bo‘laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari vujudga kelmoqda². Ana shunday tamoyillardan biri **sintaktik pozitsiya** tamoyilidir. Hozirgi kunda “pozitsiya” termini tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llanmoqda:

1) gap uzvlarining relyatsion tuzilishidagi o‘rni. Bu ma’noda *Farhod keldi va keldi Farhod* gaplarida Farhod so‘zi turli o‘rinda kelsa ham, bir xil pozitsiyada - ega pozitsiyasida kelishi ta’kidlanadi;

2) gapning silsila tuzilishida (lineynaya struktura) elementning o‘rni. Bu ma’noda *Farhod keldi, Keldi Farhod* gapining birinchisida keldi so‘zining oldingi pozitsiyada, ikkinchisida esa keyingi pozitsiyada qo‘llanishi haqida gap boradi.

Pozitsiya terminining ikkinchi ma’nosi gap bo‘laklari qat’iy tartibga ega bo‘lgan tillar uchun ko‘proq xosdir. Gapda so‘zlarning o‘rni erkin bo‘lgan tillar, jumladan, o‘zbek tili uchun pozitsiya atamasini birinchi ma’noda qo‘llash

¹ А.Нурмонов. С.Нурмонова. Уюшиқ кесим ва уюшиқ гап хақида.Илмиу хабарнома, АДУ, №4 2013-йил. В-70-75

² Нурмонов А. Гап хақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б.; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.

o‘rinlidir. O‘zbek tilshunosligida ham gapni sintaktik pozitsiya nuqtai nazaridan o‘rganishning afzalliklarini tasdiqlovchi ilk izlanishlar bo‘lgan¹.

Sintaktik nazariyalar tarixida gap va uning bo‘laklarga bo‘linishi turlicha qarashlarga sabab bo‘lgan. Aksariyat nazariyalarda gapning muhim belgisi sifatida predikativlik e‘tirof etiladi. Antik davrdan boshlab atributiv mantiq ta‘sirida vujudga kelgan an‘anaviy sintaktik nazariyada predikativlik deganda kesimning ega bilan munosabati, shaxs va sonda moslashuvi tushuniladi. Xususan, prof. M.I.Steblyn-Kamenskiy predikativlik haqida quyidagilarni yozadi: “Bu mazmuniga ko‘ra mantiqdagi subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabatning o‘zidir”². Shunga ko‘ra, har bir gap ma‘lum bir hukmni ifodalaydi. Predikatsiya hodisasi faqat gap asosinigina emas, balki hukm asosini ham tashkil etadi. Atributiv mantiq hukm tuzilishining ikki a‘zoliligini, subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabatdan tashkil topishini e‘tirof etadi. Shunday mantiq asosida shakllangan sintaktik nazariya ham hukm tuzilishga qiyosan gapning asosiy tuzilish birliklari (konstruktiv birliklar) sifatida ega va kesimni tan oladilar. Natijada bosh bo‘laklardan biri qatnashmagan gaplar gap doirasiga sig‘may qoldi.

Mazkur kamchilikni sezgan A.A.Shaxmatov yuqoridagidek mantiqiy sxemadan qochishga urindi. G‘arbiy Yevropa tilshunosligida maydonga kelgan psixologik kommunikatsiya ta‘limotini qo‘llab-quvvatladi va rivojlantirdi. U predikativlikni predikativ munosabat xisoblagani holda, psixologik su‘bekt bilan psixologik predikat o‘zaro bog‘lanib, predikativ munosabatni hosil qilishini bayon qiladi. Bu konsepsiya gapning muhim belgisi predikativlik ekanini, predikativlik ikki a‘zodan iboratligini tan olsa ham, lekin mantiqiy predikativlik bilan grammatik predikativlikni farqlaydi. Mantiqiy hukm tuzilishi bilan grammatik predikativlik tuzilishi o‘rtasida nomutanosiblik bo‘lishi mumkinligi, zerikarli tipidagi gaplarda psixologik subyekt bilan psixologik predikat bir a‘zoda

¹ Хожиев А., Махмудов Н. Семантика ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1987.-№2 . –Б.60-63.

² А.Нурмонов. С.Нурмонова. Уюшиқ кесим ва уюшиқ гап хақида.Илмй хабарнома, АДУ, №4 2013-йил. В-70-75

mujassamligini ta'kidlaydi. Natijada A.A. Shaxmatov bir sostavli gaplar nazariyasiga asos soldi.

Gap tarkibidagi ayrim sintaktik birliklarning kesim bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lana olmasligi, uning boshqa sintaktik birlik bilan qo'shilib, bir butun holda bog'lanishi mumkinligi shu kunga qadar boshqa mualliflar tomonidan ham olg'a surilgan edi. Xususan, prof. Sh.Rahmatullayev qaratqich aniqlovchilar haqida shunday deydi: "... boshqa barcha kelishiklardan farqli holda qaratqich kelishigidagi so'z o'zi yolg'iz ishlatilmaydi, u doim qaralmish bilan birga yuradi"¹. Shu sababli qaratqich kelishigidagi so'z doim birikma tarkibida turadi, birikmaning bo'lagi (ichki bo'lak) holatida bo'ladi.

Tilshunos H.Usmonova so'nggi davrda sintaktik nazariyada ro'y bergan o'zgarishlar, sintaksisni pozitsion tomondan o'rganishning afzalliklari haqida fikr yuritar ekan, gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta predikativlik shaklidagi predikat, ya'ni kesim hisoblanadi deydi. Boshqa barcha bo'laklar kesimning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi. Kesimning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldirib, uning talabi bilan ma'lum sintaktik vaziyatda (ega, to'ldiruvchi, hol) kelgan sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi².

Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda, bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi.

“Sintaktik pozitsiya” deganda, gapning markaziy birligi bo'lgan kesimning bo'sh o'rinlarini tushunamiz. Uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Masalan, Dalalarda qushlar sayramoqda gapida grammatik va mazmuniy markaz hisoblanuvchi sayramoqda kesimi subyekt, lokal hamda payt valentliklariga ega bo'lib, dastlabki ikki valentlik

¹ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. - Т.: Фан. 1970.- Б. 56.

² H.Usmonova. “O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi” f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

qushlar va dalalar sintaktik birliklari bilan to'ldirilmoqda. Subyekt valentligini to'ldiruvchi sintaktik birlik bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, ega pozitsiyasida, lokal valentligini to'ldiruvchi dalalarda sintaktik birligi o'rin payt kelishigidagi ot orqali ifodalanib, hol pozitsiyasida kelmoqda. Demak, sintaktik pozitsiya kesimning bo'sh o'rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Ayrim hollarda kesimga argument bo'lib kelgan bo'laklar ham o'zlarining bo'sh o'rinlariga ega bo'lib, ma'lum argumentlar bilan to'ldirilishi mumkin. Bunday vaqtda **sintaktik pozitsiya tushunchasi** faqat kesimga nisbatan emas, kesim argumentlarining argumentlariga nisbatan ham qo'llanadi. Ana shu holatlar e'tiborga olinsa, muayyan so'z shaklining boshqa so'z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so'z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so'z shakllari juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi¹.

Ko'rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati esa noaniq bo'ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi. Masalan, gap qurilishi a, b, s va boshqa so'z shakllaridan tashkil topgan bo'lsin. Agar biz a so'z shaklining vaziyatini b so'z shakliga munosabatiga ko'ra belgilasak, b so'z shaklining vaziyatini a shakliga qarab belgilab bo'lmaydi². Uning vaziyati s so'z shakli munosabatiga ko'ra, o'z navbatida, s so'z shaklining vaziyati esa d shakliga ko'ra belgilanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim hollarda kesimga argument bo'lib kelgan birliklar o'zlarining argumentlari bilan kengayib, u bilan birgalikda yahlit holda kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyada kelishi mumkin. Bu xaqda B.Mengliyev nutq jarayonida o'zaro munosabatga kirishuvchi bo'laklarning bog'lanishi xususida to'xtalib: «...qaratqich kelishigida «otni otga aniqlovchi vazifasida bog'lash», «tushum kelishigida otni fe'lga to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» kabi xususiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi», deb ta'kidlaydi³.

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т., 1988. -99 б;

² Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.

³ Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс.автореф.-Т., 1996.-18 б.

Gap bo‘laklarini ajratishda birinchi masala kesimni, ya’ni markaziy bo‘lakni aniqlab olish. Gapda kesim aniqlangach, unga tobe pozitsiyadagi bo‘laklar – gap kengaytiruvchilari va so‘z kengaytiruvchilarini aniqlash osonlashadi. Shu sababli til ta’limida o‘quvchining sintaktik tahlil jarayonida kesimni aniqlay olishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi fani va ona tili ta’limida gap bo‘laklari, xususan, kesim qanday o‘qitiladi?

Ishning keyingi bobida aynan ushbu masalalar xususida to‘xtalinadi.

I bob bo'yicha xulosa

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida barcha til hodisalarida bo'lgani kabi gap ta'rifida ham turkiy tillarning ichki tabiatidan kelib chiqib yondashildi va asosiy darslik va qo'llanmalarda gapning quyidagi milliy tavsifi yuzaga keldi: "Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi"¹. Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inlarida gapga berilgan ta'riflarning barchasini "kesimlik belgisiga egalik" tushunchasi umumlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, ayni paytda o'zbek tilshunosligida gapni ta'riflashda gap bo'laklari – xususan, kesimga ta'kid berilyapti. Demak, kesim – gapning tavsifiy belgisi, fikriy mundariyasi.

Ammo nutq shu qadar cheksiz va rang-barang ko'rinishlarga egaki, ularning barcha ko'rinishlarini mavjud qoidalarda jamlab olishning imkoni yo'q. O'qitish jarayonida shunday nutq parchalariga duch kelamizki, ularni gap bo'laklariga ajratishda darsliklardangina o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanoatlanib bo'lmaydi. "Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlargina bajaradi"². Ushbu hukmga tayangan o'quvchi *Va – teng bog'lovchi. Bilan ko'makchisi bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Albatta modal so'zi tasdiqni bildiradi. Zarur ishlarim bor. Yo'q gapni qayerdan olding. Lekini ham bor* kabi gaplarni bo'laklarga ajratishda *va, bilan, albatta, zarur, bor, lekin, yo'q* so'zlarining mustaqil so'z emasligi o'quvchining ularni ega, aniqlovchi yoki kesim sifatida ajratishiga, shuningdek, *O'qimaymaning nimasi. Boramandan gapir. Bordim – nima, bormadim – nima* tipidagi gaplarda esa so'zning shakli "*boramandan*"ni to'ldiruvchi, "*o'qimaymaning*", "*bordim*" va "*bormadim*"ni ega sifatida belgilashiga monelik qiladi.

Darslikdagi "Ega, asosan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi" ta'rifi "*Bu kitobdan menda ham bor*"

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: "ILM ZIYO", 2010. –160 b.

² Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. –144. В-56

tipidagi gaplarda “*kitobdan*”ni ega deb ajratishga, tilshunoslikda kesimning grammatik shakli xususida yetakchilik qiladigan qarashlar poetik nutqda uchrovchi *Man saningman, san manim* (Iqbol Mirzo), *Aytgum, bu kun, u manim, manim* (A.Oripov), *Falak amri: men – sening, sening* (“Yevgeniy Onegin”dan) tipidagi gaplarda *saningman, manim, manim, sening* so‘zlarini kesim deb qarashga to‘sqinlik qiladi.

Tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham mavjud bo‘lgan sintaktik nazariyalarda gap bo‘laklarini tasniflashga yondashuv turlicha bo‘lgani kuzatiladi. Yaqinga qadar mavjud darslik va qo‘llanmalarda gap bo‘laklari bosh bo‘laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) sifatida o‘rganilib¹, tilshunosligimizda gap bo‘laklarining ega – kesim – to‘ldiruvchi – aniqlovchi – hol tartibi hamda “Ega o‘z sostavidagi bo‘laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo‘lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o‘z sostavidagi bo‘laklarga nisbatan hokimdir”² degan nazariya yetakchilik qilib keldi.

So‘nggi tadqiqotlarda gapni bo‘laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari ilgari surilmoqda. “Ega va kesimni asosiy, qolgan bo‘laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo‘lak deb hisoblash gapning struktur sxemasini va struktur tiplarini belgilashda asosiy mezon rolini o‘ynadi. Gap strukturasi bunday qarash uning tarkibiy qismlari bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘linishini taqozo etdi. Gapning struktur sxemasini tashkil etuvchi predikativ minimum ifodalovchi ega va kesim shu gapning konstuyentlari sifatida bosh bo‘laklar; ega yoki kesimga tobe bog‘lanib, ularni kengaytirib kelgan bo‘laklar ikkinchi darajali hisoblandi”³.

Tilshunos H.Usmonovning ta’kidlashicha, gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta – predikativlik shaklidagi predikat, ya’ni kesim. Boshqa barcha bo‘laklar kesimning “bo‘sh o‘rinlari”ni to‘ldirib, unga nisbatan ma’lum vaziyatda keladi. Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan

¹ Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. В-116-117

² А.Ғулломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-70-71

³ A.Nurmonov. S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. Ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2013-yil; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б. В-70-75

biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda, bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi¹.

Kesim gapning fikriy markazi ekan, gapdagi barcha bo'laklar bilvosita yoki bevosita unga tobelanadi. Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi roliga ko'ra ayni paytda gap kengaytiruvchilari (gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar), so'z kengaytiruvchilari (gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar) ga bo'linadi².

Gapdagi barcha bo'laklarning o'rni, maqomi kesimga nisbatan aniqlanadi. Gap bitta markaziy bo'lak (yadro) – kesim, kesimlik belgisini kengaytiruvchi bo'laklar – ega, hol (ega kesim tarkibidagi shaxs-son, hol zamoni aniqlashtiradi) va kesim ifodalangan so'zning ma'nosini kengaytiruvchi bo'laklar - to'ldiruvchi, aniqlovchilardan tashkil topadi. H.Usmonova gapning markaziy birligi bo'lgan kesimning bo'sh o'rinlariga nisbatan “sintaktik pozitsiya” terminini qo'llaydi. Uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Bu vazifa kesimning bo'sh o'rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi.

Pozitsiyaga ko'ra gapni bo'laklarga ajratish masalasi o'zbek tilshunosligida o'tgan asr oxirlarida ham ilgari surilgan edi. Gap bo'laklarini, ularning turlarini belgilashda, bir qancha hodisalar hisobga olinishi, jumladan, sintaktik munosabatdagi holat va mazmun, grammatik aloqaga kirishgan so'zlarning qaysi turkumga kirishi va formasi, gapdagi o'rni, intonatsion xususiyati muhimligi; mazmun jihatdan kesim birinchi o'rinda turishi, boshqa bo'laklarning darajasi

¹ X.Usmonova. “Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позицияси” Филол.фан. док. дис.. автореф. Т., 2009. 39 б.

² Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. 414 b. B-335

uning kesimga yaqin turishi bilan ham bog‘liqligi A.G‘ulomov va M.Asqarovalar¹, gap bo‘laklarini belgilashda, ularni gap strukturasi to‘g‘ri va obyektiv tayin etishda gapni pozitsion struktura ekanligidan kelib chiqish maqsadga muvofiqligi A.Hojiyev va N.Mahmudovlar², tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, taniqli tilshunos J.Omonturdiyev gap bo‘laklari tipologiyasi xususida to‘xtalar ekan, gap bo‘laklarini to‘g‘ri tahlil qilish va ajratish sintaktik qayta bo‘linish hodisasi bilan ham bog‘liqligiga urg‘u beradi. Ya‘ni, so‘zlarning biror bo‘lak bo‘lishga xoslangan funksiyasi doimiy emas, gapda biror bo‘lak deb qaraladigan so‘z davr o‘tishi bilan forma tomondan o‘zgarib, oldingi vazifasini bajarmaydigan bo‘lib qolishi mumkin. Olim ma‘lum bir bo‘lakning qayta funksiyalanish natijasida gapda boshqa bo‘lak vazifasida kelishiga nisbatan sintaktik qayta bo‘linish terminini qo‘llaydi³.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a‘zolarining qurilmadagi vazifasini aniqlash, gap bo‘laklari tahlilida bo‘lakning qanday so‘zlar bilan ifodalanishi, so‘rog‘i, grammatik shakliga emas, balki uning gap yadrosi – markazi kesimning qaysi bo‘shlig‘ini to‘ldirayotganligi, kesimga nisbatan joylashuvi – pozitsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek nutqining turli uslubiy shakllarida uchraydigan har qanday qo‘llanishlarning sintaktik qurilishi tahlilida mavjud mezonlarga qo‘shimcha sintaktik pozitsiya tushunchasidan kelib chiqib yondashish gap bo‘laklari tahlilida bo‘shliq qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

¹ A.Фулломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-71-72

² Ҳожиёв А., Маҳмудов Н. Семантика ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1987.-№2

³ Ж.Омонтурдиев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1988. 209 б.

II BOB. KESIM KENGAYTIRUVCHILARI VA ULARNING SINTAKTIK QURSHOVDA TUTGAN O'RNI

2.1. Gap bo'laklari iyerarxiyasi va unda kesimning mavqei

Yaqinga qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib¹, tilshunosligimizda gap bo'laklarining

EGA – KESIM – TO'LDIRUVCHI – ANIQLOVCHI – HOL

tartibi hamda "Ega o'z sostavidagi bo'laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir"² degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So'nggi yillarda bu fikrga qarshi o'laroq "Kesim gapning fikriy markazi bo'lib, gapdagi barcha bo'laklar uning kengaytiruvchilaridir" degan qarash ilgari surildi.

Ayrim Yevropa tillari, xususan, rus, ingliz, nemis tillarida aksariyat hollarda kesim egasiz shakllana olmaydi, gapda fikr to'la ifodalanishi uchun ega ishtirok etishi shart. Masalan:

o'zbek	rus	ingliz
<i>Men o'qidim</i>	<i>Я читал</i>	<i>I read. I like coffee</i>
<i>Sen o'qiding</i>	<i>Ты читал</i>	<i>You read. You like coffee</i>
<i>U o'qidi</i>	<i>Он читал</i>	<i>They read. They like coffee</i>

Sintaktik birliklarning ichki tuzilish uzvlarining o'zaro munosabatini belgilashda tadqiqotchi qaysi tuzilish birligining qaysi tuzilish birligiga munosabatini belgilashiga ko'ra sintaksisda ham ikki yo'nalish maydonga keladi: mazmuniy tuzilish unsurlarining qanday shakliy tuzilish unsurlari bilan ifodalanishini o'rganish, ya'ni mazmun planidan ifoda planiga qarab yo'nalish. Bunday yo'nalish "onomasiologik yo'nalish" ham deyiladi.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. Б-116-117

² А.Фулотов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. Б-70.

Keyingi davrlarda kesimning absolyut hokim pozitsiyasi haqida fikr yuritilmoqda. Bu fikrning ildizlari Daniya tilshunosi X.G.Vivelga borib taqaladi. Fransuz tilshunosi L.Tenyer esa ana shu g'oya asosida o'zining izchil nazariyasini - bir cho'qqili nazariyani yaratdi. Ta'kidlash kerakki, X.G.Vivel ham, L.Tenyer ham har qanday gap markazida faqat fe'l (ya'ni fe'l kesim) yotishini e'tirof etadilar¹. Lekin Otam - o'qituvchi, Men talabaman singari tarkibida fe'l qatnashmagan jummalarning tuzilish markazi qaysi bo'ladi? Bu muammoga duch kelgan bir cho'qqili nazariya tarafdorlari yuqoridagi kabi tuzilishga ega bo'lgan gaplarni turlicha hal qiladilar. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi olimlar fe'lning predmetlar o'rtasidagi munosabatni bildirishini, shuning uchun ham u gap strukturasi predmet nomlanishlarini bog'lab, butunlik hosil qilishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, Qiz yigitga ro'molcha berdi gapida bosh kelishikdagi ot (qiz) jo'nalish kelishigi shaklidagi ot (yigit), belgisiz tushum kelishigidagi ot (ro'molcha) va predikativ shakldagi fe'l ishtirok etmoqda. Yuqoridagi dastlabki uchta ot shakllari bilan nomlangan predmetlar o'zaro hech qanday munosabatga kirishmaydi. Masalan, qiz-yigitga yoki qiz-ro'molcha o'rtasida hech qanday grammatik aloqa shakli yo'q. Bu gapning tarkibidagi berdi fe'li esa gap tarkibidagi predmet nomlanishlarini o'zaro bog'laydi va bu predmet nomlanishlari o'zi ifodalagan predmetlar o'rtasidagi munosabatni ham ifodalaydi. Shuning uchun bu konsepsiya tarafdorlarining fikriga ko'ra, fe'lsiz gap bo'lishi mumkin emas. Tarkibida fe'l qatnashmagan gaplarda ham uning izi sezilib turadi. Masalan, Otam o'qituvchi gapi o'tgan zamon shaklini - Otam o'qituvchi bo'lgan ma'nosini ifodalaydi. Hozirgi zamon shakliga mos keladigan sanalmoq, hisoblanmoq fe'llarining gapda qatnashmayotganligi fakti ham uning moddiy ifodalovchisi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ular nol fe'llar tushunchasini kiritadilar. Gap tarkibida moddiy jihatdan ishtirok etmayotgan, tasavvur qilinadigan fe'llar nol fe'llar sanaladi. Bunday va shunga o'xshash g'oyalar Y.Kurilovich, T.P.Lomtev kabi olimlarning asarlarida ham olg'a surildi.

¹ H.Usmonova. "O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi" f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

Ikkinchi guruhdagi tilshunoslar esa gap strukturasi qarashda bunday bir yoqlamalikka tanqidiy yondashgan holda, fe'l ishtirok etmagan gaplar ham bo'lishi mumkinligi, *Otam* – o'qituvchi tipidagi gaplarda fe'lning ishtirok etmasligi fakti moddiy fe'lninggina emas, balki nol fe'lning ham qatnashmasligi fakti ekanligini e'tirof etadilar. *Otam* – o'qituvchi gapida fe'l yo'q. Unga zarurat ham yo'q. *Otam* so'zi o'qituvchi so'zi bilan gapda qatnashmayotgan nol orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirishadi. Ana shu g'oya asosida gapning struktura markazi faqat fe'l-kesimlargina emas, balki ot-kesimlar ham bo'lishi mumkinligi e'tirof etildi. Bunga muvofiq, har qanday gapning tuzilishi va mazmuniy markazi predikativ shaklini olgan predikat, ya'ni kesimdir. Shunga ko'ra, gaplar fe'l asosli gaplar va ot asosli gaplarga bo'lina boshlandi.

Bir cho'qqili nazariya o'zbek tilshunosligida 80-yillardan boshlab keng tarqala boshladi. Har qanday gapning mazmuniy va grammatik markazi kesim ekanligini, shuning uchun ham gapning barcha modellari kesim asosida hosil qilinishini dastlab prof.A.Nurmonov ta'kidlagan edi¹. Bu nazariyaning vujudga kelishi tilshunoslik tarixida juda katta rol o'ynadi. Bu nazariya predikativlikka ikki mantiqiy a'zo – subyekt va predikat o'rtasidagi munosabat sifatidagi an'anaviy qarashga va shunga muvofiq, gap bo'laklarini ham bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishga, gaplarni esa bir sostavli va ikki sostavli tiplarga bo'lishga chek qo'ydi, gapning ontologik tabiatini to'g'ri ko'rsatishga, uning tuzilishidagi darajalanishni obyektiv yoritib berishga yo'l ochdi.

Bir cho'qqili nazariya har qanday gapning semantik va grammatik markazi, yadrosi predikativlik shaklini olgan predikat ekanligini e'tirof etish bilan bevosita kuzatishda berilgan butun gapning sintaktik tuzilishi shu markaziy birlikning semantik va grammatik valentliklarining reallashish darajasi bilan bog'liq ekanligini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Gap tuzilishiga markaziy a'zo (yadro qismi) valentliklarining reallashuvi sifatida qarash bir markaziy a'zo asosida hosil bo'lgan bir nechta gaplarni bir

¹ Нурмонов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка.-Т.: Фан, 1982.-152 с.

paradigmaga birlashtirishga, bir paradigmaga mansub bo'lgan gaplar o'rtasidagi zidlanish asosida ularning umumiy va xususiy belgilarini ochishga qulay sharoit tug'diradi. Shakl va mazmun bir obyektning o'zaro ziddiyatli ikki qarama-qarshi qutbidir. Bu tushunchalar bir-birini taqozo qiluvchi, birisiz ikkinchisi mavjud bo'lolmaydigan tushunchalardir.

Ega va kesimni asosiy, qolgan bo'laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo'lak deb hisoblash gapning struktur sxemasini va struktur tiplarini belgilashda asosiy mezon rolini o'ynadi. Gap strukturasi bunday qarash uning tarkibiy qismlari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linishini taqozo etadi. Gapning struktur sxemasini tashkil etuvchi predikativ minimum ifodalovchi ega va kesim shu gapning konstuyentlari sifatida bosh bo'laklar; ega yoki kesimga tobe bog'lanib, ularni kengaytirib kelgan bo'laklar ikkinchi darajali hisoblandi. Bosh bo'laklarning gapdagi ishtiroki belgisi gaplarning navbatdagi tasnifi uchun: bir bosh bo'lakli (bir sostavli) va ikki bosh bo'lakli (ikki sostavli) gaplarga bo'lish uchun tayanch belgi vazifasini bajardi. Bosh bo'laklardan faqat bittasi qatnashgan gaplar bir bosh bo'lakli (bir sostavli), har ikkisi qatnashgan gaplar ikki bosh bo'lakli (ikki sostavli) hisoblandi.

Ayni paytda ikkinchi darajali bo'laklarning gapda ishtirok etish-etmaslik belgisi gaplarning yig'iq yoki yoyiq turlarga, predikativ minimumning miqdori belgisi esa sodda va qo'shma gaplarga bo'linishiga asos bo'ldi. Ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gaplar yoyiq, ishtirok etmagan gaplar yig'iq; faqat bir predikativ minimumdan tashkil topgan gaplar – sodda, ikki va undan ortiq predikativ minimumdan iborat bo'lgan gaplar – qo'shma hisoblandi. Birdan ortiq bir xil tipdagi bo'laklarning qo'llanish-qo'llanmasligiga ko'ra uyushiq bo'lakli (uyushikli) va uyushiq bo'laksiz (uyushiqsiz) gaplarga bo'lindi.

Atributiv mantiqda predikat eganing belgisini bildiruvchi, unga tobe a'zo sanalgani kabi, an'anaviy grammatikada ham kesim eganing belgisini bildiruvchi, unga nisbatan tobe vaziyatda turuvchi, ayni paytda, to'ldiruvchi, hollarga nisbatan hokim vaziyatni egallaydigan nisbiy hokim bo'lak sifatida tushunildi. Bularning bari predikativlikni ikki a'zodan iboratligini e'tirof etuvchi nazariyaning mahsuli

sifatida maydonga kelgan ilmiy paradigmadir. Bunday paradigmadagi gaplarning bir bosh bo‘lakli, ikki bosh bo‘lakli gaplarga, bir bosh bo‘lakli gaplarni egasiz gaplar va kesimsiz gaplarga, bir xil shakldagi ega yoki kesimning birdan ortiq qo‘llanilishiga ko‘ra uyushiq egali, uyushiq kesimli singari gap turlariga tasnif qilishga nazariy asos mavjud.

XX asr o‘rtalaridan sintaktik nazariyada gapning struktur markazi masalasida yangicha qarash va shunga muvofiq gapning struktur tiplarining yangicha paradigmasi maydonga keldi. Bunga muvofiq gapning mazmuniy va konstruktiv markazi kesim hisoblanadi. Chunki gapning mohiyati sanaluvchi predikativlik shakllari kesimga qo‘shiladi va gapning turli belgilariga ko‘ra tavsifi kesimga qarab belgilanadi. Bunday konsepsiyaga ko‘ra, predikativlik gap orqali ifodalangan mazmunning obyektiv borliqqa bo‘lgan munosabatini bildirib, shaxs-son (personallik), zamon (temporallik), mayl (modallik), tasdiq-inkor ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar sistemasi sanaladi. Mazkur shakllar, asosan, kesimga qo‘shiladi.

Ushbu nazariyaning ildizi fransuz tilshunosligiga, xususan, Por-Royal grammatikasiga borib taqaladi. Bu grammatikaning mualliflari Arno va Landslolar faqat fe’lgina hukm ifodalab, gapni shakllantirishi va kommunikativ birlik sifatida gap tuzilishida yetakchi o‘rin egallashi haqida fikr yuritadilar.

Ko‘pjildlik “Fransuz tili grammatikasi” (1911-1940) mualliflari J.Domuret va E.Pishon ham semantik jihatdan gapning asosiy komponenti fe’l, qo‘shimcha komponenti ot (ism) bo‘lsa, struktur aspektida fe’l – bosh bo‘lak (regent), ot (ism) esa unga tobe bo‘lak (regme) bo‘lishini bayon qiladilar.

Fe’lning, aniqrog‘i, kesimning gapning struktur markazi ekanligi L.Tenyergacha rus tilshunosligida F.I.Buslayev, A.A.Potebnya, A.M.Peshkovskiy; o‘zbek tilshunosligida A.Fitrat va A.G‘ulomovlar tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, A.A.Potebnya har qanday sof fe’lni minimal gap hisoblaydi¹. A.M.Peshkovskiy ham gapning xarakterli belgisi “kesimlik” ekani,

¹ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. I-II. – М., 1988. С-78

kesimlik esa fe'llik asosiga qurilishini ta'kidlaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, jahon tilshunosligida kesim gapning tuzilish markazi ekanini olg'a suruvchi sintaktik nazariyaning asoschisi sifatida L.Tenyer e'tirof etildi. Chunki u bu g'oyani lingvistik konsepsiya darajasiga ko'tardi.

L.Tenyer struktur sintaksis asoslari haqida fikr yuritar ekan, gap strukturasi belgilashda tobelik tamoyiliga suyanadi. Uning fikricha, struktur sintaksisning obykti gap, gap esa so'zlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Gap tarkibidagi so'z lug'at tarkibidagi so'zdan farqli ravishda alohidalik belgisini yo'qotadi. Chunki gap tarkibidagi so'z boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishadi. Bu aloqalarning yig'indisi gap skeletini, ya'ni strukturasi tashkil qiladi. L.Tenyer so'zlar o'rtasidagi aloqani aloqa chizig'i atamasi bilan ifodalaydi. Aloqa chizig'ini belgilashda tobelikka katta e'tibor qaratadi. Gap uzvlari o'rtasidagi sintaktik aloqa so'zlar o'rtasidagi tobelikni belgilaydi.

L.Tenyer gap uzvlari ikki xil tartibga: struktur va chizikli tartibga egaligini, struktur tartib gapning struktur sxemasini, chizikli tartib esa struktur sxemaning nutqiy jarayondagi voqelanishini ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuning uchun struktur tartib gap uzvlarining vertikal yo'nalishdagi tartibini, chizikli tartib esa gorizontal yo'nalishdagi tartibini ifodalaydi.

Struktur tartib shajaraviylik xususiyatiga ega bo'lib, har bir sintaktik aloqa quyida turgan element bilan yuqorida turgan elementni birlashtiradi, yuqoridagi element quyidagini tobelaydi. Vertikal yo'nalishdagi har bir sintaktik aloqani tasvirlovchi chiziq stemma deb nomlanadi. Stemmalaridagi boshqaruvchi qism aloqa tuguni sanaladi. Gap bir yoki bir necha aloqa tugunlaridan iborat bo'ladi. Bir necha aloqa tugunlariga ega bo'lgan gap aloqa tugunlari iyerarxiyasini tashkil etadi. Bunday gaplarda aloqa tugunlari cho'qqisida fe'l turadi. Ayni paytda fe'ldan boshqa so'zlarning ham tugun bo'lib kelishi inkor etilmaydi¹.

L.Tenyer sintaktik konsepsiyasida gap markazi fe'l hisoblangani uchun bu yo'nalish jahon tilshunosligida verbotcentrizm (lot. verbun "fe'l") nomi bilan ham yuritiladi.

¹ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса.– М., 1988.

Predikativlikka mantiqiy yondashuvga, ega va kesim munosabati sifatida qarashga V.V.Vinogradov ham tanqidiy yondashdi. Bu hodisaning faqat gap bo‘laklari o‘rtasidagi aloqa bilan bog‘liq emasligini, u bo‘laklarga bo‘linmaydigan Jim! Issiq! tipidagi gaplarda ham mavjudligini, bunday gaplarda predikativlik modallik, zamon va shaxs sintaktik kategoriyalari orqali ifodalanishini bayon qiladi.

I.Sizov dunyoning turli tillaridagi konkret gap tiplarini tahlil qilar ekan, ega bilan kesim gaplarning zaruriy belgisi degan tezisning unchalik to‘g‘ri emasligini aytadi¹.

A.A.Xolodovich predikativlik belgisiga ko‘ra faqat kesim gap tarkibida yetakchi o‘rin egallashini, gapning boshqa bo‘laklari kesimning aktanti va sirkonstanti sifatida funksiyalashishini ko‘rsatadi. Xuddi shunday fikr T.P.Lomtev tomonidan ham bayon qilinadi. Shuningdek verbotsentrizm xind-yevropa va rus tillari materiallari asosida I.I.Raspopov va V.S.Yurchenkolar tomonidan ham rivojlantirildi².

Saksoninchi yillardan bu g‘oya o‘zbek tilshunosligiga ham ta’sir etdi. Gapning mazmuniy va tuzilish markazi sifatida ega bilan kesimni e’tirof etuvchi nazariyadan kesimni e’tirof etuvchi nazariyaga, atributiv paradigmadan verbotsentrik paradigmaga o‘tish an’anaviy sintaksisda hukm surgan gap qurilishi bilan bog‘liq bir qator tushunchalarga o‘zgartirish kiritishni talab etishi tabiiy bir hol.

Avvalo, gap va uning mohiyati, gap bo‘lagi va uning mohiyatini belgilab olish zaruriyati tug‘iladi. Gapni boshqa sintaktik hodisalardan farqlab turuvchi muhim farqlovchi belgi predikativlikdir. Ana shu belgining mavjudligi bilan gap so‘z birikmasiga zidlanadi.

Predikativlik shakllari kesimga qo‘shilishi, shuning uchun kesimsiz gap bo‘lmasligi, kesim gap bo‘lagi emas, gapning o‘zi, gapning yadrosi, eng kichik gap (Yurchenko V.S.) ekanligi ta’kidlanadi. Gapning har qanday tavsifi: ifoda

¹ Сизов И.А. Что такое синтаксис? - М., 1966. С-29

² А.Нурмонов. С.Нурмонова. Уюшиқ кесим ва уюшиқ гап ҳақида.Илмӣ хабарнома, АДУ, №4 2013-йил. В-70-75

maqsadiga ko‘ra turi, tasdiq-inkorlikka ko‘ra turi, yig‘iq-yoyiqlikka ko‘ra turi, sodda-qo‘shmalikka ko‘ra turi va boshqalar kesimga qarab belgilanadi. Demak, gapning eng muhim belgisi predikativlik ekan, ana shu ma‘noni ifodalovchi birlik kesim sanaladi. Kesim predikativ ma‘no va shaklga ega bo‘lgan eng kichik birlik sifatida gap bo‘lagi emas, gapning o‘zidir.

Kesimning gap bo‘lagi emas, gapning o‘zi ekanligi yana shu bilan dalillanadiki, gap bo‘lagi tobe munosabatda bo‘lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilanadi. Tobe qismning sintaktik pozitsiyasi aniq bo‘ladi. Hokim qismning sintaktik pozitsiyasi esa sintaktik aloqa zanjirining boshqa halqasi uchun tobe vaziyatdagi holatiga qarab aniqlanadi. Ko‘rinadiki, gap bo‘lagining muhim belgisi tobe vaziyatda bo‘lishdir. Bu nuqtai nazardan kesim hech qachon tobe vaziyatda kelmaydi. U tobe vaziyatdagi sintaktik birliklar bilan kengayadi. Ergash gap vazifasida kelganda ham tobe vaziyatdagi so‘zshakllar bilan kengayadi. Bosh gapga tobe bo‘lib kelishi esa boshqacha qonuniyat bilan izohlanadi. Shuning uchun L.Tenyer nazariyasi negizida bog‘liqlik va tobelilik yotadi. Bunga ko‘ra, kesimga tobe bog‘lanib, uning tarkibini kengaytiruvchi va mazmunini konkretlashtiruvchi a‘zolar yunktiv va translyativlar (ba‘zi adabiyotlarda aktantlar yoki argumentlar va sirkonstantlar) sanaladi. Bu nuqtai nazaridan ega ham to‘ldiruvchi va hollar singari aktantlar qatorida turadi, kesimning ega pozitsiyasidagi aktanti sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida verbotcentrizmning rivojlanayotganligi diqqatga sazovor. Chunki verbotcentrik talqin turkiy tillarning sintaktik tabiatini to‘g‘ri va aniq yoritib berishga yordam beradi. Lekin verbotcentrik yo‘nalish asosiga qurilgan ayrim adabiyotlarda gapning ichki tuzilishi tavsifida bu yo‘nalish inkor qiladigan, an‘anaviy atributiv mantiq andozasidagi predikativlik nazariyasi talabi bilan maydonga kelgan tushunchalar qorishib ketmoqdaki, bu verbotcentrizmning mantiqiy izchilligiga futur yetkazadi.

O‘zbek tilida kesimni shakllantiruvchi maxsus shakllar mavjud bo‘lib, bu nuqtai nazardan gap:

1. Grammatik shakllangan – kesim maxsus morfologik shakllar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor) orqali voqelangan;

2. Semantik-funksional shakllangan – kesimlik ma’nosi so‘zning lug‘aviy ma’nosida mujassamlashgan, ya’ni tabiatan gap bo‘lagi emas, gap bo‘lib kelishga xoslangan so‘z-gaplarga bo‘linadi¹. (3, 342)

O‘zbek tilida ham bog‘lamasiz ot-kesimli gaplarda ega ishtirok etishi shart. Aks holda kesim kesim maqomiga ega bo‘la olmaydi: *Men – shoir. U chiroyli.* Grammatik shakllangan gaplarda esa eganing tushirib qoldirilishi, odatda, kesimning mavqeiga ta’sir etmaydi: *(Men) universitetning 3-kursida o‘qiyman.* *(Men) universitetning 3-kurs talabasiman.*

Demak, ayni paytda uzluksiz ta’lim bo‘g‘ini – umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim darsliklarida kesimga berilgan: “Kesim gap markazi bo‘lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi”², “Gapni gap qilib shaklanishida muhim bo‘lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo‘lak – kesim”³, “Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma’nosini ifoda etgan gapning markaziy bo‘lagi”⁴, “Kesim – tasdiq-inkor, zamon, modallik, shaxs-son ma’no va shakllariga ega bo‘lgan so‘z, gap markazini tashkil qiluvchi bo‘lak”⁵ ta’riflarining nazariy asosida kesimning o‘zbek tili gap qurilishida tutgan o‘rni yotadi.

Ko‘rinib turibdiki, darsliklarda kesimga berilgan ta’riflar bir-biriga uyg‘un. Ularning barchasini bir narsa – kesimlik belgisi (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal)) bog‘lab turibdi. Demak, kesim uchun eng muhim belgi – zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor ma’nosi bo‘lib, kesim istalgan so‘z bilan ifodalanganda bu ma’no unda mujassamlashgan bo‘ladi:

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. 414 b. B-342

² Ona tili 8-sinf uchun darslik. M.Qodirov va boshq. – T.: Cho‘lpon, 2014. –144 b. B-57

³ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: “ILM ZIYO”, 2010. –160 b. B-44

⁴ Yuqoridagi darslik. B-46

⁵ Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. 414 b. B-345

Ifodalanishi	Shaxs-son	Zamon	Mayl	Tasdiq-inkor
Fe'l bilan	<i>Universitetda o'qiyman</i>	<i>Universitetda o'qidim</i>	<i>Universitetda o'qisam</i>	<i>Universitetda o'qimayman</i>
Ot bilan	<i>Universitet talabasiman</i>	<i>Universitet talabasi edim</i>	<i>Universitet talabasi bo'lsaydim</i>	<i>Universitet talabasi emasman</i>
Sifat bilan	<i>Sen odoblisan</i>	<i>Sen odobli eding</i>	<i>Sen odobli bo'lsang edi.</i>	<i>Sen odobli emassan</i>
Son bilan	<i>Biz birinchimiz</i>	<i>Biz birinchi bo'lamiz</i>	<i>Biz birinchi bo'lsak</i>	<i>Biz birinchi emasmiz</i>
Olmosh bilan	<i>Bu sensan</i>	<i>Bu sen eding</i>	<i>Bu sen bo'lsang</i>	<i>Bu sen emassan</i>

To'g'ri, kesim fe'ldan boshqa bo'laklar bilan ifodalanganda bu ma'nolarning barchasi maxsus shakllar bilan ifodalanmasligi va to'liq tuslanish tizimiga ega bo'lmasligi mumkin, ammo zamon, shaxs-son, mayl va tasdiq-inkor ma'nosi har qanday kesimda voqelangan bo'ladi.

Akademik I.I.Meshchaninov aytganidek, "fel fel bo'lgani uchun emas, gapda kesim bo'lib kelgani uchungina tuslanadi". Demak, tuslanish fe'lga emas, kesimga xos. Fe'l tabiatan kesim vazifasiga kelishga xoslangan so'z bo'lgani uchun tuslovchilarni o'ziga ko'proq xususiyashtirgan¹.

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi roliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Gap kengaytiruvchilari – gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar.

So'z kengaytiruvchilari – gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar.

Gap lisoniy qurilishida bo'laklar iyerarxiyasi (pog'onali o'rinlashuvi) quyidagicha beriladi:

¹ Бахриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими (Тур категорияси): Филол. фанлари номзоди дис... – Самарқанд, 2002. – 131 б.

KESIM – EGA – HOL – TO‘LDIRUVCHI – ANIQLOVCHI.

Demak, ayni paytda “bosh bo‘lak”, “ikkinchi darajali bo‘lak” tushunchalari lingvistik jihatdan biroz kuchsizlandi. Gap bitta markaziy bo‘lak – kesim, kesimlik belgisini kengaytiruvchi bo‘laklar – ega, hol (ega kesim tarkibidagi shaxs-son, hol zamoni aniqlashtiradi) va kesim ifodalangan so‘zning ma’nosini kengaytiruvchi bo‘laklar - to‘ldiruvchi, aniqlovchilardan tashkil topadi.

Darsliklarda kesimning ifodalanishi mavzusining yoritilishi biroz izohtalab. Uzlüksiz ta’limning quyi bo‘g‘inlarida kesim va u bilan bog‘liq mavzularni o‘qitishda darslikda berilgan quyidagi qoida, hukmlarga asoslanish maqsadga muvofiq:

“Kesim kesimlik (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor) ma’nosini ifoda etgan gapning markaziy bo‘lagi”¹.

“Fe’llar gapda boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, kesim, ega, to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe’l maxsus shakllarga ega bo‘ladi. Turli gap bo‘laklari vazifasiga kelish uchun xoslangan fe’l shakllari fe’lning vazifa shakllari sanaladi. Fe’lning to‘rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe’l shakli (o‘qidi); 2) harakat nomi shakli (o‘qimoq, o‘qish); 3) sifatdosh shakli (o‘qigan, oqar); 4) ravishdosh shakli (o‘qib, kelgach)”².

“Fe’lning zamon, mayl, shaxs-son qo‘shimchalari munosabat shakllari hisoblanadi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe’l gapda kesim vazifasida keladi”³.

“Kesim nima qildi? nima bo‘ldi? nima qilmoqda? kim (dir)? nima (dir)? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Masalan, Ishlasang, tishlaysan maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan”⁴.

Asosiy muammo darslik va qo‘llanmalarda fe’l kesimning ifodalanishiga sifatdosh va ravishdosh shakllarining misol sifatida keltirilishi bilan bog‘liq: “b)

¹ Ona tili 8-sinf uchun darslik. M.Qodirov va boshq. – T.: Cho‘lpon, 2014. –144 b. B-57; Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: “ILM ZIYO”, 2010. –160 b. B-44-46

² Ona tili. 6-sinf uchun darslik. N.Mahmudov va boshq. – T.: “Tasvir”, 2013. –208 b. B-46

³ Ona tili. 6-sinf uchun darslik. N.Mahmudov va boshq. – T.: “Tasvir”, 2013. –208 b. B-79

⁴ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: “ILM ZIYO”, 2010. –160 b. B-46-47

ravishdosh bilan ifodalangan kesim: Uy egasi dasturxon yozguncha, Fotima ham barkashni olib keldi. (S.A.); s) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: Po‘lat xatni kecha yuborgan”¹. “2. Ravishdosh bilan ifodalangan kesim: Shamol esib, qog‘ozlarni uchirib yubordi. 3. Sifatdosh bilan ifodalangan kesim: Shu hunarni ustozidan o‘rgangan”².

Yuqorida keltirilgan qoidalardagi kesim “kesimlik (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor) ma’nosini ifoda etgan gapning markaziy bo‘lagi” degan qat’iy hukmga tayansak, ravishdosh, sifatdosh, shuningdek, harakat nomi shakllari bu belgiga ega emas. Rus, ingliz, nemis tillarida ravishdosh, sifatdosh fe’l kesim bo‘lib kelishi mumkin, chunki u tillarda, yuqorida aytilganidek, turkiy tillardagi kabi kesimni shaklantiruvchi maxsus shakllar mavjud emas. 6-sinf darsligida o‘rinli ta’kidlanganidek, harakat nomi fe’lni otga, ravishdosh ravishga, sifatdosh sifatga xoslaydi va gapda ular bajaradigan gap bo‘laklari vazifasida keladi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, ravish ham, sifat ham, ot ham fe’l kesim vazifasiga keladigan so‘zlar emas.

Shunday ekan, fe’l-kesim faqat sof fe’llar bilan ifodalanadi. Mayli fanda bu borada qandaydir ilmiy bahs-munozaralar bo‘lishi mumkin. Ammo ta’limda darslikda berilgan fikrlarga tayanib mavzuni shu tarzda o‘qitish kesim bilan bog‘liq boshqa mavzular – uyushiq kesimli gaplar, sodda va qo‘shma gaplarni farqlash, ergash gapli qo‘shma gaplarni ajratish kabi mavzularni o‘qitishda ham chigalliklarni birmuncha kamaytiradi.

O‘zbek tili sintaksisining eng chigal va murakkab masalalaridan biri – uyushgan kesim masalalasi. Chunki uyushgan bo‘laklarni ajratishda ularga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 1) ularning hammasi gapning ma’lum bir bo‘lagiga bir tipda bog‘lanadi;
- 2) sanash ohangi bilan aytiladi;
- 3) so‘z turkumi va so‘z shakllari jihatdan ham bir xil bo‘ladi;

¹ Ona tili 8-sinf uchun darslik. M.Qodirov va boshq. – T.: Cho‘lpon, 2014. –144 b. B-59;

² Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To‘ldirilgan 6-nashr. A.Rafiyev. – T.: “Sharq”, 2013. –367 b. B-88

4) bir-biri bilan tenglanish munosabati orqali bog‘lanadi.

Uyushgan bo‘laklarni maxsus o‘rgangan olimlar bu ro‘yxatdagi ayrim holatlarni tuzatdilar va quyidagi belgilarni ilova qiladilar:

5) uyushiq bo‘laklar turli so‘z turkumlari bilan ifodalana oladi;

6) gapda har xil sintaktik vazifani bajarishi mumkin.

Uyushgan kesim masalasiga kelganda ahvol ancha o‘zgaradi. Yuqorida aytilgan mezonlar Paxtakorlar paxtani ekdilar, sug‘ordilar va terdilar gapida to‘la-to‘kis saqlangan, lekin uyushgan kesimlar turi yuqorida keltirilganlar bilan cheklanmaydi. Kesimlarda uyushishning o‘nlab turlari mavjud, buni butun mohiyati bilan anglagan A.G‘ulomov va M.Asqarova kesimning yana bir o‘ziga xos xususiyatini aytib o‘tadilar: “Eng oxirgi kesim to‘la shakllangan bo‘lib (shunisi mustaqil kesim sanaladi), bundan avvalgilari ravishdosh formasida keladi: O‘rganib, bilib, keyin so‘ray boshladi.”¹ Bu gapda so‘z o‘yini ishlatilgan: “... shunisi (ya’ni keyingisi – so‘ray boshladi – mualliflar) mustaqil kesim sanaladi.” Qolganlari-chi?! Bu savolga sintaktik mezon asosida emas, balki morfologik omil asosida ular tomondan “ravishdosh formasida keladi” degan javob beriladi. Morfologiya bobida – ravishdosh. Bunga shubha yo‘q. Sintaksisda-chi?! Agar uyushgan kesim bo‘lsa, ular nomustaqilmi? Chunki “eng oxirgisi”, “to‘la shakllangan”, “mustaqil” kesim sanaladi. Agar oxirgisi “mustaqil”, undan avvalgilari mantiqan “nomustaqil” bo‘lsa, bu yerda uyushish yo‘q, negaki mustaqil va nomustaqil bo‘laklar uyushishi mumkin emas. Agar berilgan tavsifdan “mustaqil” belgisini chiqarib tashlab, misolda ko‘rsatilgan holatni, bor haqiqatni aks ettirgan holda tavsiflamoqchi bo‘lsak, u quyidagi shaklga ega bo‘lishi kerak: “... fe’l bilan ifodalanib kelgan kesimlardan oxirgisi to‘liq shakllangan, ya’ni tasdiq inkor, mayl zamon, shaxs-son qo‘shimchalari va ma’nolarini qabul qilgan, undan oldingilari esa ravishdosh shaklida kelishi mumkin.” Bunday tavsif esa, uyushiq bo‘laklarning yuqorida keltirilgan uchinchisiga, ya’ni ularning so‘z shakli bir xil bo‘lishi mezoniga to‘g‘ri kelmaydi.

¹Гулумов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 141.

Uyushgan kesimning boshqa gap bo‘laklari uyushishidan farqlanishi bu hodisa talqiniga kiritilayotgan ayrim mulohazalardan ko‘rinib turibdi: “... uyushiq bo‘lakning kengaygan komponenti o‘z ichida uyushiq bo‘lakka ega bo‘lishi ham mumkin”.¹ “... Uyushiq kesim qismlari zamon, daraja, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik jihatidan bir xil, ba’zan esa har yil, lekin shaxs-son jihatidan doim bir xil bo‘ladi”² va “ma’lum bir semalar bo‘yicha umumiylikka ega bo‘lishi mumkin.”³

Bosh bo‘laklar, jumladan, kesim talqiniga bag‘ishlangan barcha maxsus tadqiqot ishlarida, asosan, an’anaviy sintaksisda mavjud bo‘lgan fikrlar haqida gap boradi. Bulardan xulosa qilish mumkinki, uyushgan kesim masalasi kesimni va uyushgan bo‘laklarni tadqiq etib kelgan barcha tilshunoslar uchun “to‘g‘anoq” bo‘lib kelgan. Chunki kesim uyushishining, ya’ni ikki va undan ortiq kesimning bir egaga tobelanishning shunday holatlari borki, ularni tadqiqotchilarimiz tushuntira olmaganliklari uchun “ko‘rmaganlar” yoki, aniqrog‘i ko‘rishni xohlamaganlar.

Demak, o‘zbek tilshunosligida an’anaga aylangan uyushiq bo‘laklar haqidagi ta’limot yo asossiz, yoinki kesim gap sathida, gap qurilishida tamoman boshqa mavqega ega bo‘lib, uning uyushishi boshqa gap bo‘laklarining uyushishidan tubdan farq qiladi.

2.2. Gap kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni

Nutqiy kommunikatsiya jarayonida til sathlarining barchasiga oid birliklar harakatga keladi, bu harakatlarning eng oliy muvofiqlashtiruvchisi esa kommunikativ sintaksisdir. Nutqiy muloqotning asosiy birliklari bo‘lmish gap va matn pirovard natija o‘laroq aynan shu kommunikativ sintaksis qonuniyatlari asosida shakllanadi. Kommunikativ sintaksis hamisha so‘zlovchi, tinglovchi va nutq o‘rtasidagi aloqalarni hamda bu aloqalardagi o‘ziga xosliklarni ham nazarda tutadi. Albatta, bunda semantik-struktur va sistem sintaksis qonun-qoidalarini

¹Фуломов А, Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 141

²Фуломов А, Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 144

³ Фуломов А, Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 145

nazardan soqit qilib bo‘lmaydi, chunki kommunikativ sintaksis aynan ana shu qonun-qoidalarining nutqiy realizatsiyasi jarayonlariga asosiy e‘tiborni qaratadi, ana shularni o‘rganishni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi.

O‘zbek tili sintaksisi va stilistikasi muammolarining jiddiy tadqiqotchilaridan biri I.Toshaliyev o‘rinli ravishda aytib o‘tganidek, “lisoniy o‘zgarishlarni til va nutq, til tizimi va nutq faoliyati, umumiy va xususiy, barqarorlik va tasodifiylik o‘rtasidagi farqlanishlar nuqtai nazaridan ham talqin etish mumkin. Sistem lingvistika va kommunikativ lingvistika o‘rtasidagi chegarani belgilashda ham mana shu tamoyillardan kelib chiqiladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, sistem lingvistika va kommunikativ lingvistika lisoniy qo‘llanish sohasini o‘rganishda bir-birini to‘ldiradi.”¹

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo‘lganligi sababli o‘zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so‘zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Demak, nutqiy gaplardagi ikki hodisani farqlash lozim:

1) gap markazini tashkil etuvchi so‘zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog‘lanuvchi so‘z;

2) gapda ishtirok etayotgan ma’lum bir so‘zning ma’noviy valentligini to‘ldirayotgan so‘z.

Bulardan birinchisi gap kengaytiruvchisi bo‘lsa, ikkinchisi – so‘z kengaytiruvchisi.

Gap kengaytiruvchisi gap tarkibida ma’lum bir bo‘lak vazifasida kelayotgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositaga bog‘lanadi. Masalan: Biz bu kitobni kecha o‘qidik gapini olaylik. Bu gapda ega (biz), aniqlovchi (bu), hol (kecha) va kesim (o‘qidik) ishtirok etgan. Gap markazi (o‘qidik) ni lug‘aviy ma’noni anglatuvchi (W) va kesimlik qo‘shimchalari (Pm) ga ajratamiz: o‘qi (W) - dik (Pm). Gapdagi biz (ega) kesimlik kategoriyasi shaklining (-k) qismiga, kecha (hol) esa (-di) qismiga

¹ Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. – Тошкент: Зарқалам, 2004.-Б. 11.

bog‘langan. Kitobni so‘zi (to‘ldiruvchi) kesimning lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismiga, bu (aniqlovchi) esa kitobni so‘ziga bog‘lanmoqda.

Demak, gapning kesimi tarkibidagi kesimlik qo‘shimchalariga tobelangan kecha (hol) va biz (ega) so‘zlari – gap kengaytiruvchilari. Biroq o‘qidik kesimining lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismi bo‘lgan o‘qi so‘zi istalgan boshqa fe‘l (yoz, chiz, ol, ber) bilan almashtirilib, [-dik] qismi saqlab qolinsa, biz so‘zi ega, kecha so‘zi hol vazifasida qolaveradi.

Demak, kesimlik kategoriyasi gapning markazini shakllantiruvchi asosiy vosita bo‘lganligi sababli, yuqorida keltirilgan gapdagi ega gapning sintaktik qurilishiga bevosita aloqador qism – gap kengaytiruvchisi deb baholanishi kerak. Eganing mavjudligi kesim vazifasida kelgan so‘zning ma’nosi bilan emas, balki kesimlik grammatik shaklining, jumladan, uning tarkibidagi shaxs-son ma’nosi bilan bog‘liq. Ko‘rinadiki, ega kesimlik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi shaxs ma’nosini o‘zida muayyanlashtiradi.

Darslik va qo‘llanmalarda eganing shu gap tarkibidagi boshqa bir so‘zga ergashib so‘z birikmasi tuza olmasligi (masalan, yuqoridagi gapda biz o‘qidik hosilasi so‘z birikmasini emas, balki gapni berishi) ta’kidlanadi. Xuddi shuningdek, men o‘qituvchiman gapida ham men olmoshi o‘qituvchi so‘zi bilan so‘z kengaytiruvchisi sifatida birikib so‘z birikmasi tuza olmaydi. Mening o‘qituvchim so‘z birikmasida esa boshqacha holatni kuzatamiz, ya’ni bu yerda so‘z birikmasi grammatik shakl – egalik qo‘shimchasi [-im] ning sintaktik qobiliyati asosida yuzaga keladi va o‘qituvchi so‘zining semantik valentligiga aloqador emas.

Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qo‘shimchalari tarkibidagi shaxs-son, hol esa zamon, modallik, tasdiq-inkor shakllari bilan bog‘lanadi.

Gap kengaytiruvchilari faqat kesimga tobelanadi va uning boshqa bir so‘zga tobelanishi kuzatilmaydi. Bu bilan u sintaktik qurilmadagi barcha tobe birliklarning umumiy – faqat bir so‘zga tobelanish, lekin birdan ortiq so‘zga hokim mavqaida bo‘la olish qonuniyatini (xususiyatini) namoyon qiladi.

2.3. So‘z kengaytiruvchilari va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni

Gap tarkibidagi mustaqil so‘zlik mavqeini saqlagan barcha so‘zlarning ma’noviy qobiliyati asosida kengaya olishini va shu qobiliyatni namoyon qilishini ta’minlovchi lug‘aviy birlik so‘z kengaytiruvchisi deyiladi. So‘z kengaytiruvchisi gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo‘lmay, ma’lum bir so‘zning ma’nosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador bo‘lgan hodisa. So‘z kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap bo‘lagi – gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning ma’lum bir bo‘lagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi – kesim tarkibidagi kesimlik qo‘shimchasi bilan bog‘lanmaydi. Aniqlovchi ana shunday bo‘lakning tipik ko‘rinishi. Masalan, Bu kitobni kecha o‘qidik gapidagi bu aniqlovchisi to‘ldiruvchi (kitobni) ga tobelangan va gap tarkibida to‘ldiruvchi bilan bir butun holda kesimga bog‘lanadi.

Aniqlovchi gapdagi barcha bo‘laklarni kengaytirishi mumkin.

a) eganing kengaytiruvchisi : A’lochi Tohir keldi.

b) kesimning kengaytiruvchisi: Sen ilg‘or o‘qituvchisan.

v) holning kengaytiruvchisi: U azim shaharda yashaydi.

g) to‘ldiruvchining kengaytiruvchisi: Aqlli bolalarni sevaman.

e) aniqlovchining kengaytiruvchisi: Beg‘ubor yoshligim taassurotlari hech qachon o‘chmaydi.

So‘z kengaytiruvchisi nutqda kesim vazifasida kelgan so‘zga mansub bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Gulnora iste’dodli talaba. Bu holatda ham so‘z kengaytiruvchisi gap qurilishiga o‘zi ergashib kelgan so‘z bilan birga kirib keladi va gap qurilishida alohida o‘rin egallamaydi. Yuqoridagi gapda iste’dodli so‘zi gap kesimiga tobelanib kelganday ko‘rinadi. Aslida esa u gap kesimiga emas, balki mana shu gapdagi kesim vazifasida voqelangan talaba so‘ziga tobelanib kelmoqda. Shuning uchun gapning kesimi vazifasida kelgan so‘zning leksik-semantik valentligi bilan bog‘liq bo‘lgan kengaytiruvchi bo‘lak ham so‘z kengaytiruvchisi. Biz kecha bu kitobni o‘qidik gapidagi kitobni so‘zshakli bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchini olib ko‘raylik. Ma’lumki, vositasiz to‘ldiruvchi bilan

birikish faqat o‘timli fe’lga xos. Shu boisdan vositasiz to‘ldiruvchi kesimlik shakli bilan emas, balki kesim vazifasida ma’no jihatidan o‘timli bo‘lgan fe’lning kelishi bilan bog‘liq. So‘z va gap kengaytiruvchilarini farqlashga yuqorida tasvirlangan mezon asosida yondashadigan bo‘lsak, bu gapdagi to‘ldiruvchini ham so‘z kengaytiruvchisi – o‘timli fe’lning lug‘aviy ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyanlashtiruvchi bo‘lak sifatida baholash lozim. Vositali to‘ldiruvchi ham vositasiz to‘ldiruvchi kabi gapda so‘z kengaytiruvchisi mavqaida bo‘ladi va gap qurilishida mustaqil o‘ringa ega emas.

Demak, to‘ldiruvchi ham aniqlovchi kabi so‘z kengaytiruvchisi bo‘lib, gapning qurilishida mustaqil o‘rin egallamaydi, balki gap tarkibiga o‘zi bog‘lanayotgan o‘timli fe’l bilan birga kiradi. O‘timli fe’l gapda qanday mavqada kelmasin, vositasiz to‘ldiruvchi u bilan bir butunlikni tashkil etib, shu butunlikka nisbatan bo‘lak maqomida bo‘ladi. Boshqacha aytganda, mazkur gapda to‘ldiruvchi gapning bo‘lagi emas, balki kesimning bo‘lagi – bo‘lak ichidagi bo‘lak.

To‘ldiruvchi gapda, ko‘pincha, kesimga bog‘lanadi. Lekin to‘ldiruvchi faqat kesimga tobelanib keladi, degani emas. U barcha bo‘laklarni to‘ldirishi mumkin:

Kattani hurmat qil.

Kattani hurmat qilishni o‘rgan.

Kattani hurmat qilish - yoshlarning fazilati.

Bolalarimizni yoshligidan kattani hurmat qilishga o‘rgatishimiz zarur.

Yoshlarimizdagi eng yaxshi fazilatlardan biri kattani hurmat qilishdir.

Ko‘rinadiki, vositasiz to‘ldiruvchi 1-gapda kesimga, 2- gapda vositasiz to‘ldiruvchiga, 3- gapda egaga, 4- gapda vositali to‘ldiruvchiga, 5- gapda yana kesimga bog‘lanib kelayapti.

Demak, to‘ldiruvchi fe’l bilan ifodalangan barcha gap bo‘laklariga bog‘lanadi va gap tarkibiga o‘zi bog‘langan bo‘lak bilan yaxlitligicha kiradi. Bu kengaytiruvchilar o‘zi birikayotgan so‘z bilan so‘z birikmasi hosil qiladi, biroq gap qurilishi bilan bevosita aloqador emas.

2.4. Modal kengaytiruvchilar va ularning sintaktik qurshovdagi o‘rni

Tegishli nutqiy muloqot ehtiyoji va talabiga muvofiq gapning (yoki matnning) hajmi, strukturasi, modal-kommunikativ, badiiy-estetik jihatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ana shu ehtiyoj va talabga uyg‘un ravishda nutqiy jarayonda jumla ixchamlashishi, kengayishi, odatdagi shaklini saqlagan holda mazmun sig‘imini orttirishi, turli qo‘shimcha axborotni o‘z ichiga olishi, ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatidagi o‘zgarishlarni turli darajada aks ettirishi, yaxlit yoki muayyan bir qismining ayricha poetik ta’kid olishi kabi juda ko‘p xilma-xil hodisalar mavjudki, ular turli sintaktik usul va vositalar orqali voqe bo‘ladi. Masalan, ikkinchi darajali predikatsiyali konstruksiyalarning sodda gapga kiritilishi bilan gapning odatdagi shakli saqlangani holda uning mazmun sig‘imi ortadi va gapda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik yuzaga keladi, bu va shunga o‘xshash qonuniyatlar o‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov tomonidan tadqiq etilgan.¹ Mazkur usul va vositalardan yana biri kirish va kiritmalardir. Bunday birliklar, shuningdek, ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, aktual bo‘laklanish, gapning kommunikativ tiplari, ilova konstruksiyalar, parsellyatsiyalar va boshqa shu kabi hodisalar kommunikativ sintaksis kategoriyalari sifatida turli tilshunosliklarda qayd etilgan.

[Pm] da mujassamlashgan va turli vositalar bilan ifodalangan tasdiq-inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, aniqlik, qat’iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zarurat, majburiylik kabi ma’nolar gap tarkibida turlicha – kirish bo‘lak, kiritma bo‘lak kabi gapning boshqa bo‘laklari bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishmaydigan va shu boisdan so‘z birikmalarini ham tashkil eta olmaydigan modal va tasdiq-inkor so‘zlar vositasida kengaytiriladi. Masalan: 1. Nigora, ehtimol keladi. 2. Biz, shubhasiz, yutib chiqamiz. Gaplardagi ehtimol, shubhasiz so‘z-gaplari sodda gap tarkibiga kirar ekan, gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasa-da, mazmunan (Pm) ning tegishli ma’nolarini

¹ Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

muayyanlashtiradi. Modal kengaytiruvchilar bu bilan lisoniy gap mazmunini nutqda to‘laroq ochishga yordam beradi.

Xususan, kirish va kiritmalar gapda (matnda) jiddiy kommunikativ va ayni paytda semantik, struktur hamda lingvopoetik qimmatga egaligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Tabiiyki, kirish va kiritmalar ham kommunikativ sintaksisning, ham konstruktiv sintaksisning o‘rganish obykti ekanligini isbotlab o‘tirishning keragi yo‘q.¹

Bu o‘rinda, avvalo, mazkur birliklarni ifodalovchi terminlarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Aksar tilshunosliklarda bunday birliklar “paranteza” yoki “parenteza” termini ostida umumlashtiriladi. Masalan, “parenteza” termini nemis tili grammatikalarida an’anaviy ravishda ham kirish, ham kiritma birliklarni ifodalash uchun qo‘llangan.² Bunday holat belorus, rus va boshqa tilshunoslarning nemis³ va ingliz⁴ tillari muammolariga bag‘ishlangan ishlarida ham kuzatiladi. Nemis tili grammatikasining yirik tadqiqotchisi V.G.Admoni shunday yozadi: “Kiritma konstruksiya (parenteza) deganda odatda biron-bir formal-grammatik aloqalarsiz boshqa biror gap (kirituvchi, o‘z ichiga oluvchi) tarkibiga ajratilgan holda kiritilgan gap tushuniladi... Parenteza va kirituvchi gap orasidagi mazmuniy munosabatlar favqulodda xilma-xildir.”⁵ Bu fikrdan anglashilib turganiday, olim “parenteza” termini ostida muayyan formal-grammatik aloqa ko‘rsatkichlarisiz gap tarkibiga kiritilgan birlikni, xususan, ham kirishlarni, ham kiritmalarni nazarda tutgan. Shubhasiz, u parenteza va asosiy kirituvchi gap o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarning benihoya xilma-xilligini ta’kidlar ekan, kirish va kiritmalar orasidagi semantik-funksional farqlar, shuningdek, ularning har biriga xos bo‘lgan mazmuniy jihatlarga urg‘u beradi. Bu jihatlarni konkret badiiy asar tili misolida ko‘rsatib beradi.

¹ Прияткина А.Ф. Русский язык. Синтаксис осложненного предложения. –М.: Высшая школа, 1990. -С. 157.

² Рахманова В.М. Вставные единицы в современной публицистике. (на материале немецкого и башкирского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Уфа, 2007.-С. 7.

³ Самолетова Р.С. Явление парентезы в аспекте лингвистики текста / Вопросы семантики и методики преподавания иностранных языков. – Минск: Наука и техника, 1982. -С.137.

⁴ Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М.: Высшая школа, 1980. -С. 76.

⁵ Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. –Л.: Наука, 1973. -С. 178.

Keltirilgan fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, “paranteza” terminida “kiritmalilik, kiritish” va “qavs (yoki boshqa tinish belgilari) bilan ajratilganlik” ma’nolari aniq ifodalanadi. Zotan, kirishlarning ham, kiritmalarning ham gapdagi pozitsion-struktural mohiyati shundan iboratki, ularning har ikkisi ham asosiy gap tarkibiga tashqaridan kiritiladi. Ayni paytda asosiy gap ichida intonatsion ajratiladi va bu ajratilish yozuvda qavs yoki boshqa tegishli tinish belgilari bilan ko‘rsatiladi. Tilshunoslar mazkur hodisaning ayni shu jihatiga jiddiy e’tibor beradilar va shuning uchun bo‘lsa kerak, aksar hollarda kirish va kiritmalar tavsifiga tilshunoslikning tinish belgilari haqidagʻi qismida ham alohida o‘rin ajratadilar.¹

Shuni ham aytish kerakki, kirish va kiritmalarni umumlashtiruvchi nom sifatida turli tilshunosliklarda “paranteza // parenteza”dan boshqa terminlardan ham foydalanilgan. Masalan, rus tilshunosligida ayrim tadqiqotchilar “vstavka” (kiritma) terminini ham qo‘llaydilar. A.A.Reformatskiy nafaqat kirish va kiritmalarni, balki ular bilan birgalikda undalmalarni ham umumlashtirgan holda ularga nisbatan “vneseniye” (kirgizma) terminini qo‘llaydi. Kirish va kiritmalar, shuningdek, pozitsion-struktural jihatdan ularga yaqin boshqa birliklar I.F.Vardul tomonidan ilgari surilgan sintaktik konsepsiyada “vklineniye” (yorib kirgizma, suqib kirgizma) termini ostida o‘rganilgan. Fransuz tilidagi jumla muammosini tadqiq etgan L.G.Vedenina ham ayni terminni qo‘llaydi, bir gapning boshqasi ichiga yorib kirgizishni “vklineniye” deb ataydi va buning matn shakllantiruvchi usul ekanligini ta’kidlaydi².

Turk tilshunosligida kirish va kiritmalar, shuningdek, gap bo‘laklari bilan (xususan, gap kesimi bilan) bevosita sintaktik aloqaga ega bo‘lmagan, gap tarkibiga tashqaridan kiritilgan sintaktik birliklarni ifodalash uchun alohida ixcham bir termin yo‘q, shuning uchun ham bunday birliklar “gapdan tashqari unsurlar” (“cümle dışı unsurlar”) tarzidagi tavsifiy ifoda bilan nomlanadi.³

O‘zbek tilshunosligida ham kirish va kiritmalar uchun umumlashtiruvchi muayyan bir termin yo‘q. Aslida, umumiy termin sifatida “kiritma” so‘zidan

¹ Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1968. –Б.75 – 82; Розенталь Д.Э. Справочник по пунктуации. –М.: Книга, 1984. -С. 116-126.

² Веденина Л.Г. Французское предложение в речи. –М.: Высшая школа, 1991.- С. 116.

³ Ergin Muharrem. Türk Dil Bilgisi. 19. baskı. İstanbul, 1992. -S. 401.

foydalanish mumkin, u gapning pozitsion-struktural tarkibi ichiga boshqa birlikni kiritishdan iborat hodisani ifodalay oladi.

II bob bo'yicha xulosa

Aloqa-aralashuvning asosiy birligi bo'lgan nutqiy gapni tarkibiy qismlarga ajratish, gap bo'laklari va har bir bo'lakning gap qurilishidagi o'rnini aniqlash sintaksisning azaliy muammolaridan bo'lib kelgan.

Ma'lumki, ko'pgina tillarda gapga ta'rif berishda, avvalo, kommunikatsion vosita ekanligiga ta'kid beriladi. Uzoq yillar davomida o'zbek tilshunosligida ham "So'zlar vositasi bilan anglatilgan fikr gap deb ataladi" degan tavsif yetakchi bo'lib keldi. F.I.Buslayev tomonidan gapga berilgan ushbu ta'rifning kamchiliklari o'z davrida rus tilshunosligida tanqid qilingan bo'lishiga qaramay, o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning oxirlariga qadar maktab grammatikalarida shu ta'rif o'qitib kelindi.

Uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida o'qitib kelinayotgan gapga berilgan milliy tavsifda o'zbek nutqida uchraydigan son-sanoqsiz gaplarning barchasini umumlashtiradigan belgi – hukm anglatish va kesimlik belgisiga qat'iy urg'u beriladi: "Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi"¹.

Kesim – gapning tavsifiy belgisi. U gapning markazi – asosini tashkil etadi. Gapdagi barcha bo'laklar yo kesimlik belgisi Pm (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor) ni, yo kesim ifodalangan atov birligining ma'nosini kengaytiradi. Ushbu kengaytiruvchilarni aniqlashda kesimdagi bo'sh o'rinlarni qanday vaziyatda to'ldirishini bilish muhim ahamiyatga ega.

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: "ILM ZIYO", 2010. –160 b.

III BOB. SO‘Z VA GAP KENGAYTIRUVCHILARINI ANIQLASHDA SINTAKTIK POZITSIYANING O‘RNI

Har qanday nutqiy jarayon til kodlari (belgilari) yordamida insonning obyektiv olam haqidagi fikrlarini ifodalash jarayoni sanaladi. Shunday ekan, nutq obyektiv olam bilan ong orqali bog‘langandir. Obyektiv olamning muayyan parchasi inson ongida aks etadi va bu aks etgan borliq uzvlarining umumlashgan obrazlari til kodlari yordamida o‘z ifodasini topadi. Ko‘rinadiki, til va tafakkur o‘zaro uzviy aloqadordir. Inson miyasida ong va til ikki nisbiy mustaqil jihatni tashkil etadi. Ularning har qaysisi o‘ziga xos bilimlar saqlanadigan xotiraga va ularni faollashtiradigan vositalarga ega. Bu vositalar ko‘rsatilgan ikki turdagi bilimlar xotirasidan muayyan voqea-hodisani bayon qilish uchun zarur bo‘lganlarini ajratib olib, harakatga keltiradi. Shunday qilib, bu ikki jihat bir-biri bilan shu qadar mustahkam aloqadorki, ong faoliyati har doim til faoliyatini kuzatib boradi va o‘z tarkibiga ko‘ra yagona va murakkab nutqiy tafakkur jarayonini hosil qiladi. Ong – bu insonning o‘zini qurshab turgan olam haqidagi bilimlari majmuidir. Inson bunday bilimlarga olamni bevosita kuzatish jarayoni orqaligina emas, balki boshqalardan axborot olish orqali ham ega bo‘ladi. Shuning uchun insonning bilish faoliyati ham til sistemasi yordamisiz amalga oshmaydi.

Til “xotirasi”da saqlanadigan asosiy bilim – bu so‘z va uning ma‘nolari haqidagi bilimdir. Bu bilimni faollashtiruvchi vosita esa grammatik vositalardir. Nutqiy jarayonda kerakli so‘zlarni tanlash va ularni bevosita nutqqa olib kirishda so‘zlovchining oldindan so‘z haqida ega bo‘lgan bilimlariga tayaniladi.

Har qanday nutqiy jarayon ikki bosqichni taqozo etadi: birinchi bosqich - fikrni shakllantirish, ikkinchi bosqich - kommunikatsiya maqsadida fikrni moddiy vositalar orqali yuzaga chiqarish. Nutqiy tafakkur jarayonining birinchi bosqichida ongning faollashtirilgan elementlari alohida kadrlarga bo‘linadi va ularning har qaysisi alohida voqea yoki hodisalarni aks ettiradi. Fikr oqimining alohida kadrlarga bo‘lish vositasi relyatsion predikatlar va ularning konkret ma‘nolaridir.

Relyatsion predikatlar va ularning ma'nolari birikuvidan propozitsiya vujudga keladi.

80-yillardan boshlab o'zbek tilshunosligi oldida o'rganilayotgan obyektни tavsifiy bosqichdan tadqiqot bosqichiga ko'tarish, o'zbek tilining barcha sath birliklarini sistem-struktur o'rganish metodikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish vazifasi ko'ndalang qilib qo'yildi¹. Shu yillardan boshlab gapga sistema sifatida yondashuv natijasida gapning eng muhim struktur markazi sifatida kesim e'tirof etila boshlandi va gapning boshqa bo'laklari kesimning kengaytiruvchilari sifatida izohlana boshlandi. Bunday g'oya H. Ne'matov, A. Nurmonov, N. Mahmudovlar tomonidan olg'a tashlangan bo'lsa, keyinchalik R. Sayfullayeva, M. Qurbonova, M. Boshmonov, L. Raupova, H. Usmonova va boshqalar tomonidan rivojlantirildi.

Gapning tarkibidagi sintaktik uzvlar roli qaysi a'zo qaysi a'zoga bog'lanish xususiyati bilangina chegaralanmaydi. Masalan, U kitob o'qidi va Kitob u tomonidan o'qildi gaplari bir xil so'zlardan tashkil topgan. Bu so'zlar har ikki gapda bir ma'noda qo'llanadi va bir xil "tobelik shajarasi"ni hosil qiladi. Lekin yuqoridagi gaplar bir xil so'zlarning turli sintaktik pozitsiyani egallagani bilan farq qiladi. Birinchi gapda u ega pozitsiyasida, harakat tushgan obyekt to'ldiruvchi pozitsiyasida, ikkinchi gapda esa harakatni bajaruvchi subyekt (u) to'ldiruvchi pozitsiyasida, harakatni qabul qilgan obyekt esa ega pozitsiyasida qo'llangan.

Shunday qilib, sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a'zolarining qanday so'zlardan ifodalanishigina emas, balki shu a'zolarining qanday sintaktik pozitsiyada (vaziyatda) kelishi ham gapning mazmuniy tuzilishi uchun ahamiyatlidir. Chunki ikki va undan ortiq gaplar bir xil so'zlardan tashkil topishi bilan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin shu so'zlarning turli vaziyatlarda kelishi bu gaplarning boshqa-boshqa ekanligini ta'minlaydi. Demak, bunday o'rinlarda gapning asosiy farqlovchi (differensial) belgisi shu gapda ishtirok etayotgan uzvlarning moddiy tomoni emas, balki ularning qanday vaziyatni egallash belgisi sanaladi.

¹ Нурмонов А. Талаб, эҳтиёж, имконият. Олий ва ўрта мактабда ўзбек тилини ўқитишни қайта қуришнинг йўналишлари // Ўқитувчилар газетаси.-1988.-5 март.


Ko‘rinadiki, gap uchun shu gapni tashkil etgan uzvlarning substansional (moddiy) tomoni qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, shu uzvlarning egallagan vaziyati ham shunchalik ahamiyatlidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, gapning mazmuni u ifodalagan obyektiv borliqqa muvofiq kelishi uchun shu borliq qismlarini (fragmentlarini) to‘g‘ri nomlashgina kifoya qilmaydi. Bundan tashqari, ular o‘rtasidagi munosabatni ham to‘g‘ri ifodalash lozim bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, u yoki bu axborotni ifodalash uchun so‘zlovchining muayyan so‘zlarni tanlashi faqat ma’lum obyektiv voqelikni, ma’lum sintaktik vaziyatni to‘g‘ri ifodalash uchun zarur bo‘lgan sintaktik konstruktsiya tanlangandan so‘nggina amalga oshadi. Shuning uchun ham Y.Kurilovich sintaktik ma’no leksik ma’noga nisbatan birlamchi ekanligini ta’kidlaydi.

Nutqiy faoliyat jarayonida sintaktik qurilma tanlanishi bilan birga, bu qurilmani to‘ldirish uchun so‘z ham tanlanadi. Bu har ikki jarayon nominatsiya jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham V.G.Gak: “So‘z va sintaktik qurilma jumla qurish jarayonida turli darajada nominativ va uyushtirish vazifasini bajaradi”, degan edi. Bu shuni ko‘rsatadiki, faqat so‘zgina emas, balki gap qolipi ham nominativ aspektida o‘rganilishi mumkin. Gap qurilishida so‘z birikmalari nuqtai nazaridan yondashuvga muvofiq, gap nominativ birliklarning – so‘z va so‘z birikmalarining birlashuvi sifatida qaraladi. Mazmuniy sintaksis nuqtai nazaridan esa gap ishtirokchilari harakatga keltirilgan voqelik (vaziyat) sifatida o‘rganiladi. Ishtirokchilar “aktantlar” deb yuritiladi. Shunday qilib, gapning mazmuniy ishtirokchilari – aktantlar bilan bu aktantlarning sintaktik bog‘lanishdagi vazifalari bir xil emas. Shuning uchun ham mazmuniy ishtirokchilar bilan ularning egallagan sintaktik vaziyatlari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish ham keyingi davrda sintaksis mutaxassislari diqqatini ko‘proq o‘ziga jalb eta boshladi. Buning natijasida mazmuniy sintaksisda gapning shakl va mazmuni o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga alohida e’tibor berila boshlandi.

3.1. Gap bo‘laklarini ajratishda sintaktik pozitsiyaning o‘rni

Avvalgi boblarda gap bo‘laklari va unga zamonaviy yondashuv, shuningdek, sintaktik pozitsiya tushunchasi xususida batafsil to‘xtalindi. Dissertatsiyamizning ushbu bobida gap markazi – kesim kengaytiruvchilari, uyushiq bo‘lak, ajratilgan bo‘laklar, sodda va qo‘shma gaplarni aniqlashda sintaktik pozitsiya, ya’ni sintaktik birlikning gap tarkibidagi tutgan mavqeidan kelib chiqish yuzasidan tahlillar o‘tkazamiz.

Ma’lumki, gapning eng kichik lisoniy qolipi [WP_m] ramzi bilan berilib, gapning umumiy lisoniy mohiyati sifatida tavsiflandi. Bunda o‘zbek nutqida qo‘llanadigan aksariyat gapning eng umumiy belgilari mujassamlashgan. Nutqdagi barcha gaplarning kesimdan boshqa bo‘laklari olib tashlansa ham, u gap bo‘la oladi. Biroq nutqiy gaplarning lisoniy sathda bu umumiylik (WP_m) dan quyiroqda joylashgan boshqa umumiyliklari ham bor. Modomiki, gap kengaytiruvchilari gap mohiyatini belgilovchi asosiy vosita bo‘lgan kesimlik qo‘shimchalari (P_m) ga tegishli ekan, demak, yig‘iq gapdan boshqa barcha kengaygan gapda, kesim bilan birga, yana ikkita gap bo‘lagini ajratish mumkin. Ular ega va hol. To‘ldiruvchi va aniqlovchi esa barcha bo‘laklarga, bo‘lakning bo‘laklariga bog‘langanligi hamda so‘z kengaytiruvchilari bo‘lganligi bois lisoniy qolipdan o‘rin ola olmaydi. Ular qaysi so‘zga bog‘lanayotgan bo‘lsa, lisoniy sathda uning valentliklari sifatida yashaydi. Yig‘iq gap esa umumiy qolip – [WP_m]ning aynan voqelanishi. Masalan: Bahor. O‘tlar yam-yashil kabi. Demak, gapning minimal qolipi [WP_m] ega va hol bilan kengaytirilsa, u quyidagi ko‘rinishni oladi:



Bu gapning maksimal qolipi hisoblanadi. Boshqa barcha so‘z kengaytiruvchilari (to‘ldiruvchi va aniqlovchilar) o‘zi ergashib kelayotgan bo‘laklar bilan bir butun holda bitta bo‘lak (ega, kesim, hol) bo‘lib keladi. Masalan, *Sharob hammaning boshini qizdirib, hissiyotni aqldan ustun qilgan bu*

soatda sohibqiron Amir Temurning Hindistonning podshohi bo'lgan zurriyoti o'zining qilich kesmaydigan, o'q o'tmaydigan nazarkarda botir ekaniga arslon kiyik bilan olishganda o'z g'alabasiga amin bo'lganday ishonmoqda edi (P.Qodirov) gapida uchta gap kengaytiruvchisi bor: *bu soatda, zurriyoti, aniq bo'lganday*. Bular to'g'ridan-to'g'ri gap markazi (kesimi) dagi kesimlik qo'shimchalari bilan bog'langan. Qolgan so'zlar esa ana shu (*soatda, zurriyoti, amin bo'lganday, ishonmoqda edi*) bo'laklarning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'z kengaytiruvchilaridir.

Gapda hollar ma'noviy turlariga ko'ra bir nechta bo'lsa ham, u bitta H belgisi bilan gap qolipidan o'rin oladi.

Uyushiq bo'laklar gap strukturasi bir xil mavqeni egallaganliklari sababli ularni lisoniy sintaktik qolipda berishga ehtiyoj yo'q. Shuningdek, ajratilgan bo'laklar ham qaysi bo'lakni izohlayotgan bo'lsa, o'sha bo'lak bilan bir butunlik kasb etadi.

Lisoniy sintaktik qolipning cheksiz rang-baranglikda voqelanish imkoniyati ustiga nutqda har bir so'zning ma'no valentligi zaminida xilma-xil so'z kengaytiruvchisi bilan kengayib kelish imkoniyati qo'shiladi va bu ko'rinishlarni cheksiz miqdorda ko'paytiradi. Lisoniy sintaktik qoliplarda har bir tashkil etuvchi (kesim, ega, hol) ning bitta so'z, so'z birikmasi, so'z birikmasi zanjiri, ajralmas birikma bilan ifodalana olish qonuniyati va bunday turli qurilishli birikmalarning sintaktik nuqtai nazardan teng huquqliligi mazkur imkoniyatni yanada kengaytiradi. Shuning uchun gapning o'ta sodda ko'rinish kasb etgan eng umumiy mohiyati – minimal qolipi - [WPm] ham, undan quyidagi umumiylik – maksimal qurilish qolipi - [E-H-WPm] ham nutqimizda mana shunday rang-baranglik va cheksiz imkoniyatga ega bo'ladi.

Gapni bo'laklarga ajratish – bo'laklar sintaksisini o'rganish gapni tarkiblarga ajratish – ega-kesim yoki logik sub'yekt va predikat qismlarni ajratishga qaraganda birmuncha murakkab jarayondir. Chunki gapning tarkibi tasavvurda ikkiga ajralib turadi, bo'laklar bunday “bo'rtib” ko'rinmasligi mumkin. Ikkinchi tomondan, gapdagi ayrim bo'laklar shakl jihatidan “falon” bo'lak deyishga imkon bersa ham,

*yurak yonmog'i kerak: yonmog'ini – ega, kerakni – kesim; qamchinidan qon tomadi: qamchinidanni – to'ldiruvchi, qonni – ega, tomadini – kesim sifatida ajratishga mazmun yo'l qo'ymaydi*¹.

To'g'ri, har bir mustaqil so'z bir bo'lak vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Respublika planni bajardi* gapi ega, to'ldiruvchi, kesimdan iborat. Bunda hattoki, so'zlarning gapdan tashqarida ham qanday bo'lak bo'lishi sezilib turadi. Biroq gapdagi bo'laklar hamisha bunday grammatik shakli bilan erkin ajrala bermaydi. Masalan, *Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi obro'si nihoyat darajada oshib ketdi* gapi oltita bo'lakka ajraladi, xolos. Aks holda birikmaning keyingi elementlari (*yillarda, Respublikasining, miqyosdagi, darajada, ketmoq*) o'zlariga tegishli bo'lak bilan munosabatga kirisha olmaydi. Solishtiraylik: *keyingi yillarda oshib ketdi – bo'ladi. Biroq yillarda oshib ketdi – bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi obro'si darajada oshib ketdi* deb ham bo'lmaydi.

Gap bo'laklari ko'pincha so'zning sintetik shakli (sodda va qo'shma so'zlar) bilan ifodalanadi. Bu shakl bilan ifodalangan bo'lak bir butun holda bir bo'lak sifatida ajratiladi (bunda deyarli qiyinchilik bo'lmaydi). Masalan, *Olmaotalik mehmonlar Mirzacho'lga borishdilar* gapida ikkita sodda, ikkita qo'shma so'z ishtirok etgan bo'lib, to'rtta bo'lak vazifasida kelgan (aniqlovchi, ega, hol, kesim).

Gap bo'laklari so'zning analitik shakli (mustaqil so'z+yordamchi so'z yoki yordamchi so'z+mustaqil so'z) bilan ifodalanganda ham, bir butun holda – gapning bitta bo'lagi sifatida ajratiladi. Bir bo'lak sifatida ajratiladigan analitik qurilmalar ko'pincha quyidagi formalarda bo'ladi.

Mustaqil so'z + to'liqsiz fe'llar: *Biz qishloqqa borgan edik. Karim o'qi-tuvchi ekan. Biznikiga ham kelar emish. Shul erur aybim Muqimiy... Lof emas, yolg'on emas* kabi.

Mustaqil so'z + predikativ-modal so'zlar: *Biz zavod-fabrikalarga xomashyo yetkazib berishimiz zarur (I.R.). Bilish uchun o'qish kerak, izlanish kerak. Men siz bilan borishim mumkin* kabi.

¹ J.Omonturdiyev, A.Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Termiz, 2011. –B 123

Mustaqil soʻz + koʻmakchi: *Koʻrmagan dunyo hali sen kabi oshigʻini (qoʻshiq). Xalq uchun ishlaymiz. Men dunyoga kelgan kundanoq, Vatanim deb seni uygʻondim (H.O.). Erta bilan turaman, yuz qoʻlimni yuvaman. Ikki yil ishlaganimdan keyin qishlogʻim tomon yoʻl olaman (O.). Men haqimdagi iliq soʻzlaringiz uchun rahmat (“Saodat”).*

Mustaqil soʻz + koʻmakchi feʼllar: *Oʻngʻay savollar ekan: aytib berib qoʻya qolmabsan-da. Qiziqsiz oyi, aytib berib qoʻya qolish uchun bilish kerakmi, axir (“Yosh kuch”). Bizni mahalladagilar ham bilib qoldi. Birpas oʻtirib turing. Oyingiz hozir kelib qoladilar (“Saodat”).*

Mustaqil soʻz + iborat, demak tipidagi soʻzlar: *Tarix safarbarlikdan iborat (Asq.M.).*

Mustaqil soʻz + yuklama: *Yorim borgan joylarga men ham bormay qolmayman (qoʻshiq).*

Mustaqil soʻz + yordamchi soʻz vazifasidagi **bor, yoʻq** soʻzlari: *Qirgʻogʻingda kaklik boʻlib sayragim bor – sayragim bor, Quchoqingda baliq boʻlib yayragim bor – yayragim bor (qoʻshiq). Faqat senga ochganim yoʻq, ochganim yoʻq yurak rozin (qoʻshiq).*

Ega + eganing kesimdan yoki boshqa boʻlakdan keyingi takrorlangan shakli ham gapda bir boʻlak sifatida ajratiladi: *Anzirat kampir koʻrinish-dan sergʻayrat, erkaksim on xotin (O.). Bu qizning aqlli qizligini bilmagan ekanmiz (O.). Bu ot yaxshi ot.*

Orttirma daraja koʻrsatuvchi yordamchi soʻzlar oʻzi bogʻlangan soʻz bilan bir boʻlak sifatida ajratiladi: *Bu yoʻllar eng qadim yoʻllardir (Gʻ.Gʻ.). Juda goʻzal binolar qad koʻtarganki, bu kishini shodlantiradi (O.) va b.*

Juft soʻzlar va soʻzning bir xil va har xil takrorlari gapning bitta boʻlagi sifatida ajratiladi: *Men u vaqtlarda hayotning past-balandini bilmagan, oq-qorani tanimagan bir yigitcha edim (A.Q.). Bizning Mirzayevlar oilasi bilan bordi-keldimiz bor. Togʻ-togʻ tuproq qazildi (O.). Olmaotaning olmasiday qip-qizildir yuzlaring, Konibodom bodomi-dek qoʻp-quralay koʻzlaring (Gʻ.Gʻ.).*

Turg'un birikmalar (murakkab terminlar – murakkab so'zlar, frazeologik birikmalar) gapning bitta bo'lagi sifatida ajratiladi: *Termiz davlat universiteti paxta terimida tashabbuskor bo'ldi. Bu kishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida ishlaydi; Salimboyvachcha o'zining qordan qutilib, yomg'irga tutilganini angladi (O.). U kapalagi uchib ketgan kotiba qizning oldidan o'qday otilib o'tdi. (O.) Jang qilib charchagan dushman ikki qo'lini burniga tiqqanicha qarabga qarab yo'l olgan edi (O.).*

Gapdan tashqarida erkin so'z birikmasi hisoblangan ko'pgina so'z birikmalari gap ichida gapning bitta bo'lagi vazifasida kelib, bir butun holda ajratiladi. Bunday vazifada ko'proq quyidagi birikmalar qo'llaniladi: a) bir umumiy affiks bilan boshqariladigan birikmalar: *Qo'sh og'izli multiq hamisha shofyorda turar edi (Sh.R.). Ko'p xonali uy qurdik;* b) son+numerativ so'zlardan tuzilgan birikmalar: *Ming gektaga paxta ekan er bolaman, hay yorey (qo'shiq). A.Navoiy bir ming to'rt yuz qirq birinchi yilda Hirotda tug'ilgan;* v) birga qo'llanilishi zarur bo'lgan aniqlovchi+aniqlanmishdan tuzilgan birikmalar: *Botir baland ruh va tetik qadam bilan jo'nadi (O.). Sho'r suvda sovun ko'pirmaydi. Yotib o'qish zararli. Pishmagan meva qorinni og'ritadi. Ko'p chopish yurakka ziyon;* g) kesimi sifat, sifatdosh; bor, yo'q kabi so'zlar bilan ifodalangan ega+kesim qolipidagi birikmalar: *Sizni ko'zi qora, sochi uzun bir qiz so'rab keldi. Siz aytgan kishi men bo'laman. Sening ko'z ilg'amas maydonlaringda Jahannam qo'rqajak janglarni ko'rdim. Yana bir karra yov o'tgan o'rmonlaringda Ko'mirdan ham qora tonglarni ko'rdim (H.O.). Insofi yo'q yigit ekansiz (A.Q.). Aqli bor yigit har bir yaxshi ishning tashabbuskori bo'ladi (O.).*

Ba'zan izofali birikmalar gapda bitta bo'lak sifatida ajratiladi: *Sukut –rozilik alomati. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Betaraflik – qat'iysizlik belgisi.*

Ba'zan butun bir yoyiq gap faqat ikkita bo'lakka ajrala oladi, xolos: *Hech qayerda ham damlab qo'yilgan osh yo'q (A.Q.) – Hech qayerda ham damlab qo'yilgan osh – ega, yo'q – kesim. Paxtaga! Bu so'z hech qayerda O'zbekistondagiday jaranglab eshitilmasa kerak (A.Q.) – Bu so'z – ega, hech qayerda O'zbekistondagiday jaranglab eshitilmasa kerak – kesim.* Gap faqat bosh

bo'laklardan (bular ba'zan yig'iq, ba'zan yoyiq bo'lishi mumkin) iborat bo'lganda, logik hukmga, bo'laklar sub'yekt va predikatga teng kelib qoladi.

Umuman, gapni bo'laklarga ajratish, birichidan, bo'lak ifodalanayotgan materialning morfologik, sintaktik tabiatini yaxshi bilishni talab qiladi. So'ngra, bo'lak sifatida ajratilayotgan qismning gapdagi gramma-tik-semantik vazifasi, mustaqilligi, boshqa bo'laklar bilan munosabati grammatik shakli, xususan, mazmun va shakl birligi kabilar hisobga olinishi kerak. Ba'zan bo'laklarning shakli bir xil bo'lib qoladi. Masalan, *Paxtalar chaman-chaman, jonim bilan teraman* – *Paxtalar chaman-chaman mashina bilan teraman* qo'shilmalarining shakli (ot+ko'makchi+ harakat) bir xil, ikkalasi ham tobelanish yo'li bilan tuzilgan. Bunday vaqtda mazmunga (shaklga emas), semantikaga, so'roqlarga e'tibor beriladi. Qiyoslang: *Jonim bilan teraman. Qanday?* – *jonim bilan*: harakat ob'yekti emas – **hol**; *Mashina bilan teraman. Nima bilan?* – *mashina bilan*: harakat ob'yekti – **to'ldiruvchi**. Biroq hamma vaqt ham so'roqlar yordamida bo'laklarni ajratib bo'lmaydi, ba'zi bo'laklarning so'rog'i bir xil bo'ladi. Masalan, ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi (tor ma'noda) bilan ravish holi **qanday**, ega, kesim, to'ldiruvchi **kim**, **nima** so'roqlariga javob bo'ladi: *chiroyli vatan* (qanday?), *tez o'qidi* (qanday?); *Karim keldi* (kim?), *kelgan yigit Karim* (kim?); *shamol esdi* (nima?), *Guvillayotgan narsa – shamol* (nima?), *Jamoa davlatga paxta sotadi* (nima?) kabi.

Demak, so'roqlar gap bo'laklarini aniqlashda yordamchi vositadir. Gapni bo'laklarga ajratishda tartib va intonatsiyaning roli kattadir. Masalan, *Bolalar ko'chada orqasini o'girib turgan Afandini savalab ketishdi* gapida *savalab ketishdi* – **kesim**, biroq *savalabdan* keyin pauzaning berilishi uni (savalabni) – **hol**, keyingi bo'lak (*ketishdi*)ni **kesim** holatiga tushiradi.

Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma'no va vazifalar, paradigmalardagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o'z ontologik tabiatida birlashtiruvchi hodisa (birlik)da birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita – oraliq uchinchi mavqeida bo'ladi. Tabiatan istagan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga egadir”.

Sintaksisda lisoniy birlikning asosiy turlari qolip (qolip)lar ajratilib, qoliplarning morfologik (lug‘aviy shakllar yasash, sintaktik shakllar yasash), derivatsion (sodda va qo‘shma so‘z yasash), sintaktik (nominativ birliklar – so‘z birikmalari hosil qilish qoliplari, kommunikativ birliklar – gap hosil qilish qoliplari) turlari farqlanadi.

Keyingi tadqiqotlar kesimdan boshqa bo‘laklarni nofunktsional bo‘laklar deb qaramoqda¹. Butun gap uchun nofunktsional bo‘lagi bo‘lgan sintaktik butunlik uchun propozitiv nomlanish atamasidan foydalanish ma‘qul ko‘rildi. Propozitiv nomlanish turli sintaktik pozitsiyalarda kelishi mumkin:

1. Ega pozitsiyasida: Shamoldan tez uchgan poyezdlarham to Shimolga yetguncha ketadi holdan.(H.Olimjon)
2. To‘ldiruvchi pozitsiyasida: Ukamni bog‘chadan olib kelishni buyurdi.
3. Hol pozitsiyasida: Shimolga yetguncha ketadi holdan

Yuqorida berilgan sintaktik birliklar bir butun holda gap tarkibida muayyan sintaktik pozitsiyada kelsa, uning tarkibidagi uzvlar butun gapga nisbatan nofunktsional sanaladi. Ularning funkcionallashuvi faqat propozitiv nomlanish tarkibida propozitsiyani hosil qiluvchi tayanch nuqtaga nisbatan bo‘ladi.

Gapning struktur sxemasini kesim va uning “bo‘sh o‘rinlari” nuqtai nazaridan belgilash aniqlovchi va izohlovchilarga mutlaqo boshqacha yondashuvni talab qiladi. Chunki bu bo‘laklar kesimning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldiruvchi mustaqil bo‘lak sifatida kela olmaydi. Kesimning “bo‘sh o‘rinlari”ni to‘ldirib, unga nisbatan muayyan sintaktik pozitsiyani egallaydi, ya‘ni propozitiv nomlanish hosil qiladi. Masalan: *Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so‘raydi qadrin* (G‘.G‘ulom) gapida o‘zaro munosabatda bo‘layotgan to‘rtta gap bo‘lagi bo‘lib, uchtasi so‘raydi kesimining “bo‘sh o‘rin”larini to‘ldirib, uch sintaktik pozitsiyada keladi: birinchisi – ega pozitsiyasida, ikkinchisi – vositali to‘ldiruvchi pozitsiyasida, uchinchisi – vositasiz to‘ldiruvchi pozitsiyasida. Ega va vositali to‘ldiruvchi pozitsiyasida kelgan birinchi va ikkinchi sintaktik birliklar

¹ H.Usmonova. “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi” f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

aniqlovchilar bilan kengayib, propozitsiya hosil qilgan. Uning tarkibidagi aniqlovchi shu butunlikning ichki bo‘linishiga mansub bo‘lib, butun gap tuzilishi uchun aloqasizdir.

Shuningdek, gapning kesimi ham aniqlovchilar bilan kengayib kelishi mumkin. Masalan: *Sen - Saidning sevgan singlisi*. Anglashiladiki, aniqlovchilar faqat propozitiv nomlanish tarkibida funkcionallanib, kesim, ega, to‘ldiruvchi, hol sintaktik pozitsiyalarida kelayotgan bo‘laklarning tarkibiy qismi sanaladi. Ular faqat propozitsiyani ichki uzvlarga bo‘lgandagina, uning tarkibidan ajraladi. Shunday qilib, hozirgi tilshunoslikda ikkinchi darajali bo‘laklarning hammasi ham gap tuzilishida bir xil maqomga ega emasligi ma’lum bo‘lmoqda. Shuning uchun ham ikkinchi darajali bo‘laklarni gapning bo‘lagimi yoki bo‘lakning bo‘lagimi ekanligini ajratish zaruriyati tug‘ilmoqda.

3.2. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarni aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o'rne

Ma'lumki, sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar ajratilgan va uyushgan bo'laklar, undalma, kiritmalar hisoblanadi. Ba'zan ushbu gap uchun nosintaktik vosita sifatida qaralayotgan bo'laklarni aniqlashda ham sintaktik pozitsiya nuqtai nazaridan yondashish hozirga qadar ayrim munozaraga sabab bo'lib kelayotgan hodisalar mohiyatini oydinlashtiradi. Bunday holat, xususan, uyushiq bo'laklar va ajratilgan bo'laklarni aniqlash bilan bog'liq.

Formal va substansial yo'nalishlar gap qurilishi talqiniga doir ixtiloflardan asosiysi uyushiq bo'lak masalasida namoyon bo'ladi. Chunki kesimga munosabat bu ikki yo'nalishda tubdan farq qilar va u butun grammatik qurilish talqinining markazida turib, ayniqsa, sodda va qo'shma gaplarni farqlashda tayanch nuqta vazifasini o'taydi. Bu tayanch nuqta, ayniqsa, uyushiq kesim doirasida yaqqol bo'rtib turadi. Kesim har doim ham boshqa uyushiq bo'laklarga xos bo'lgan xususiyatlarga ega emas, ya'ni u uyushiqlikka doir qonun-qoidalarga har doim ham bo'ysunmaydi. Gapning biror boshqa bo'lagi kesimga o'xshab hukmni bildirmaydi. Shuning uchun uni uyushiq bo'laklar qatorida emas, balki alohida tarzda tahlil etish ma'qul ko'rildi. Kesimning gap asosiga olinishi ham buni taqozo qiladi. Substansial talqinda uyushiq kesim masalasi birinchi bor tilshunos H.Ne'matov rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan oldinga surildi. Ular 1984-yilda o'zbek sintaksisining substansial tadqiqi yo'nalishini belgilab berishdi. Maqolada sintaksisning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritilib, unda turkiy sintaksisga yangicha munosabat g'oyalari tezislar ko'rinishida ifoda etildi. Keyinchalik uyushiq kesim masalasi uyushiq bo'laklar qatorida bir necha risola va maqolalarda o'rganildi.

Uyushgan so'zshakllari gap bo'laklari bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ular umumiy "uyushgan so'zshakl" atamasi bilan berildi. Ammo ular orasidagi aloqa tenglanish aloqasi bo'lib, uyushayotgan so'zshakllar tenglanish qatorini hosil qiladi.

Tenglanish qatori gapda har qanday sintaktik mavqeni egallashi mumkin:

Kesim: *Siz aqlli va tadbirkorsiz.*

Ega: *Go‘yo Navoiy va Boyqaro qarshimda edi.*

Hol: *Suv o‘ynoqlab, ko‘piklanib oqardi.*

To‘ldiruvchi: *U qalam, daftar, ruchka oldi.*

Aniqllovchi: *Nasibaning va Karimaning opalari keldi.*

Undalma: *Aziz do‘stlar, yurtdoshlar, sizlarni sog‘inib yashadim.*

Ko‘rinadiki, gapning konstruktiv bo‘laklari ham, nokonstruktiv bo‘laklari ham uyushishi mumkin.

Uyushiq so‘zshakllar bir butun holda, yaxlit a‘zo sifatida gap struktur qolipiga bevosita (uyushiq kesim, ega, hol) yoki bilvosita (to‘ldiruvchi, aniqllovchi va boshqa so‘z kengaytiruvchisi) daxldor bo‘ladi.

Uyushgan so‘zshakl har doim sintaktik mavqe va morfologik shakllanish jihatidan bir xil bo‘ladi. Ular boshqa so‘z bilan bog‘lanishda tenglik saqlaydi. Ammo ularning qanday so‘z bilan ifodalanishi – so‘z turkumi jihatdan bir xil bo‘lishi va, demak, bir xil so‘roqqa javob bo‘lishi shart emas: *Seni (olmosh) va Salomatning ukasini (ot) taqdirlashadi.*

Uyushiq so‘zshaklning muhim nutqiy belgisidan biri sanash ohangi bilan aytilishi. Sanash ohangi bo‘lmasa, sintaktik mavqe, grammatik shakl va ifodalanish jihatlari bir xilligiga qaramasdan so‘zshakllar uyushiq sanalmaydi. Nutqda sifatlovchi va hollarning uyushmagan holda takror kelishi ko‘p kuzatiladi. Masalan, *Mening diqqatimni dumaloq oppoq toshlar tortdi* gapidagi *dumaloq* va *oppoq* so‘zshakli *toshlar* so‘zshakliga tobelanib, ifodalanish va grammatik shakl jihatdan bir xil.

Yoki: *Ertaga ertalab yo‘lga chiqaman. Bugun kechqurun ketyapman. 1994-yil 14-sentabrda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tug‘ilganman.* Ushbu gaplardagi *ertaga ertalab, bugun kechqurun, 1994-yil 14-sentabrda, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida* kabi o‘rin va payt hollari gap tarkibida birdan ortiq qo‘llangan bo‘lsa-da, sintaktik vaziyatiga ko‘ra ularni uyushiq bo‘lak deb qaray olmaymiz.

Mavjud talqinlarda uyushiq bo‘laklar xarakterlanar ekan, asosan, bir turkum va grammatik shaklga mansub bo‘lishi, bir xil so‘roq qabul qilishi, gapning bitta bo‘lagiga tobelanishi va doim bir xil sintaktik vazifada kelishi sanab o‘tiladi. Biroq nutqimizda shunday tenglanish qatorlari ham uchraydiki, ularning barcha belgilari uyushiq bo‘laklarga mos keladi, ammo uyushgan bo‘laklar uchun eng muhim belgi – bir xil vazifada kelmaydi. Masalan, *Hech kim, hech qachon, hech narsa unutilmaydi*. Ushbu gapdagi *hech kim, hech narsa* birliklari sintaktik pozitsiya nuqtai nazaridan uyushgan egaga teng keladi. *Hech qachon* ilmiy jihatdan hol. Biroq uning pozitsiyasi – vaziyati uyushgan ega sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Demak, tenglanish qatoridagi so‘zshakllar sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo‘lmasligi ham mumkin. Ya’ni ular bir hokim uzvga tobelanishsa va o‘zaro teng aloqaga kirishishsa-da, sintaktik vazifa jihatdan farqlanishi mumkin: *Har joyda va har kimga sen haqingda gapirdim*. Bunday *har joyda va har kimga* so‘zshakllari o‘zaro teng aloqaga kirishgan, lekin biri gap kengaytiruvchisi (*har joyda*), ikkinchisi esa so‘z kengaytiruvchisi (*har kimga*). Bu yerda uyushgan bo‘laklarning har biri har xil lisoniy-sintaktik o‘rinlarni to‘ldiradi. Xususan, mazkur gapdagi *har joyda* so‘zshakli gap lisoniy strukturasiidagi hol o‘rmini to‘ldirsa, *har kimga* so‘zshakli gap markazidagi atov birligi [W] ning kengaytiruvchisi, gap lisoniy strukturasiiga bevosita daxldor bo‘lmagan a’zo.

Uyushgan so‘zshaklning oxirgisi tegishli grammatik shaklni olib, oldingilari olmagan bo‘lishi ham mumkin: *Maydonni begona o‘t, tosh va har xil chiqindilardan tozaladik*. Bunda uyushgan so‘zshaklning oxirgisi (*chiqindilardan*) chiqish kelishigi bilan shakllangan. Bu uyushgan so‘zshaklning grammatik shakllanishi har xil bo‘lishi ham mumkin degani emas. Chunki oxirgi so‘zshakldagi chiqish kelishigi uyushgan so‘zlarning boshqalariga ham tegishli. Faqat nutqiy tejam grammatik ko‘rsatkichning barcha so‘zshaklda takrorlanishiga monelik qiladi.

Demak, sintaktik mavqe (pozitsiya, vaziyat), grammatik shakl bir xilligi va uyushtiruvchi ohangga egalik uyushgan tenglanish qatorining zaruriy belgisidir.

3.3. Sodda va qo‘shma gaplarni ajratishda sintaktik pozitsiyaning o‘rni

XX asrning o‘rtalarida ustoz Ayyub G‘ulomov ommalashtirgan so‘z birikmalarida hokim bo‘lak, gap qurilishida ega yetakchiligi haqidagi talqini asosida o‘zbek tili sintaksining alohida (oldingi tilshunoslar juda kam e‘tibor bergan) sohasi – qo‘shma gap sintaksisi tadqiqiga alohida diqqat qaratildi. Akademiklar G‘anijon Abdurahmonov va Mazluma Asqarovalarning doktorlik dissertatsiyalari (1960 va 1963- yillar), qator monografiya, risola va o‘quv qo‘llanmalarida, juda ko‘p ilmiy maqolalarida, o‘nlab shogird va izdoshlarining dissertatsion ishlarida bu masala tadqiq, tahlil va targ‘ib manbai bo‘ldi. Bu talqinlarda gap qurilishining talqini markazida ega turganligi va ega–kesim munosabati mantiqiy predikatsiya (subyekt–prekikat) aloqasi bilan deyarli tenglashtirilganligi sababli *Salimjon kelgach / kelgandan keyin / kelishi bilan axborot berdi, Salimjon o‘qidi, yozdi* turidagi qurilmalar bir xil egali bo‘lganligi bois sodda, ikki va undan ortiq eksplitsit (gap qurilishida moddiy shaklda ifodalangan) egali (aniqrog‘i, ega emas, balki subyektli, bajaruvchili, foilli) qurilmalar (*Salimjon kelgach / kelgandan keyin / kelishi bilan, u / Rahimjon axborot berdi, Salimjon o‘qidi, u / Rahimjon yozdi.*) qo‘shma gaplar sifatida baholandi. Mana shu metodologik tamoyillar asosida qo‘shma gapning bog‘langan, ergash gapli, bog‘lovchisiz, murakkablashgan kabi turlari ajratildi.

Turkiy tillarning grammatik qurilishi ravishdosh sifatdosh, harakat nomi shakllarining juda keng rivojlanganligi bilan Hind-Yevropa tillari grammatik qurilishidan tubdan farq qiladi. Bu farqning xarakterli belgilaridan biri shuki, turkiy tillarning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari o‘z bajaruvchisiga, o‘z subyektiga ega. Bunday xususiyat Hind-Yevropa tillari oilasiga kiruvchi birorta tilga ham xos emas.

“Sintaksis baynalmilaldir” degan xulosaga asoslangan o‘zbek tili sintaksisi ko‘p kategoriyalarining taqdiri o‘zbek tilining grammatik qurilishi, o‘zbek tilining semantik strukturasi, o‘zbek tilining ohangi, tovush tempi qurilishi tabiatidan kelib chiqib emas, balki rus tilining grammatik-semantik qurilishi tabiatidan kelib

chiqib, “ag‘darmachilik” zaminida hal qilina boshladi. Masalan, Salim o‘qiyotganda men keldim gapi ikki yarusli bo‘lib, bir hukmni tasdiqlaydi. Bu gapning birinchi yarusi (Salim o‘qiyotganda) ikkinchi yarusi ifoda etilgan harakatning bajarilish paytini ko‘rsatadi. Payt ma’nosini kuchaytirish, ta’kidlash uchun birinchi yarusini payt, vaqt singari so‘zlar hisobidan kengaytirish ham mumkin. Bunday holda -da unsuri shu so‘zlarga o‘tadi: Salim o‘qiyotgan paytda // vaqtida men keldim kabi. Bu xil variantlarda gap mazmuniga hech qanday putur yetmaydi.

Salim o‘qiyotganda men keldim, Salim o‘qiyotgan paytda men keldim singari ikki xil ko‘rinishda ham birinchi va ikkinchi yaruslar orasida qisqa pauza bo‘ladi. Lekin ularda predikativ birliklarga, ya’ni qo‘shma gapning qurilish materiali bo‘lgan sodda gaplarga xos ohang yo‘q. Ko‘rinadiki, Salim o‘qiyotganda men keldim qurilmasi (konstruksiyasi) qo‘shma gap emas, balki sodda gapdir. Salim o‘qiyotganda men keldim gapining birinchi yarusi subyekt-predikat zaminida tashkil topgan sifatdosh oborot bo‘lib, uning gapdagi sintaktik vazifasi yoyiq payt holidir. Tahlil qilinayotgan gap singari konstruksiyalarning milliy sintaktik, milliy fonetik qurilishdan ko‘z yumib, rus sintaktik qurilishi asosida tarjimaga tayanildi. Va natijada Salim o‘qiyotganda men keldim gapi Kogda Salim chital, ya prishel gapi singari payt ergash gapli qo‘shma gap deb baholandi. Garchi nazariyotchi tilshunoslarga har bir til morfologiyasining butun qudrati, tilning tub milliyliigi yaqqol shaklda sintaksisda ro‘yobga chiqishi ma’lum bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida an’anaga aylangan qo‘shma gap haqidagi ta’limot qator muammolarni tug‘dirdi. Bu muammolar o‘zbek tili sintaksisining muammolari emas, chunki muammo bo‘lib kelayotgan hodisalarning birortasi ham o‘zbek tili sintaksisi uchun yot yoki begona bo‘lgan hodisa emas. Bularning muammoligi shundaki, ular an’anaviy qo‘shma gap haqidagi ta’limotning talqin meyorlaridan chetga chiqishi, sintaksis uchun emas, balki uning talqini uchun muammodir.

Turkiy tillarda ham hukm unsurlari bo‘lgan bosh bo‘laklar (subyekt va predikatlarga analogik holda) har qanday gapning asosini tashkil etadi, deyiladi. Natijada tilshunoslikdagi nazariy konsepsiyalar va konkret sintaktik

konstruksiyalarning xususiyatlari o'rtasida turli chalkashliklar vujudga keladi. Chunonchi, o'zbek tilida sodda gap doirasida kesim hamma vaqt shaxs-son, mayl, zamon ko'rsatkichlari bilan shakllangan bo'ladi deb, uqtiriladi va bir predikativ markazdan iborat bo'lgan gap sodda gap, ikki va undan ortiq predikativ markazdan iborat bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Lekin an'anaviy sintaksisda qo'shma gap tarkibida qo'llangan kesimlar har doim ham shu ko'rsatkichlar bilan (shaxs-son, zamon, mayl ko'rsatkichlari) shakllangan bo'lmaydi va shunga qaramay, bu qismlar qo'shma gapning komponentlari – sodda gap deb uqtiriladi: Sen kelgach, men ketaman va boshqalar. Vaholanki, Sen kelgach..., Sen kelganda..., Sen kelgandan keyin... kabi qurilmalarda sodda gaplarga xos bo'lgan na mazmun, na ohang tugalligi, na grammatik shakllanish (shaxs-son, zamon, mayl ko'rsatkichlari) bor. Bunday anglashilmovchilikni yuzaga keltirgan omil yuqorida ko'rib o'tilgan Sen kelgach, men ketaman gapining rus tilida Kogda ti pridesh, ya uydu deb ergash gapli qo'shma gap tarzida berilishidadir. Chunki Sen kelgach, men ketaman tipidagi gaplarni qo'shma gap sifatida baholashga imkoniyat beradigan, yuqorida keltirilgan rus tili meyoridan boshqa o'zga asos yo'q; subyekt-predikat munosabatlari va ularni to'la-to'kis "ega-kesim" munosabatlariga ko'chirishdan o'zbek tilshunosligi 60- yillarning boshidayoq voz kechgan edi. Negaki, *Sen kelgach* qabilidagi predikativ aloqa sen kecha ko'rgan tarkibida ham bordir (*Sen kecha ko'rgan qizni biz bugun uchratmadik*). Bu gapdagi ham subyekt ikkita – sen va biz, predikat – harakat ham ikkita va har bir harakatning bajaruvchisi alohida sen ko'r – biz uchrat. Lekin bunday qurilmalar, ya'ni Sen kecha kurgan qizni biz bugun uchratmadik gapi qo'shma gap deb baholanmaydi. Mantiqiy subyekt-predikat munosabatlari to'ppa-to'g'ri grammatik ega-kesim munosabatlariga ko'chirilganda bunday gaplar ham qo'shma gap deb baholanishi lozim bo'lar edi. Vaholanki, bu yo'ldan, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek tilshunosligi voz kechdi. Lekin *Sen qizni ko'rganda, biz uni kuzatayotgan edik* gapida (*sen bizni ko'rganda ...*) qo'shma gapning tarkibiy qismi deb baholash chetlatilmadi. Va buning boisi yuqorida aytilgan yagona asos: o'zbekcha bu

gapning qurilishiga ruscha *Когда ты увидел девушку, мы её провожали* qo'shma gapning mos kelishidir.

Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida 40- yillardan beri mantiqiy predikat vazifasida o'z bajaruvchisi (subyekt) bilan kelgan ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllarining mustaqil sodda gaplarga teng bo'lolmasligini nazarda tutgan holda gap kesimi vazifasini o'tay olmasliklari ko'p bora qayd etildi. Lekin nazariyalar o'zbek tili qo'shma gaplari tahliliga bevosita tatbiq etilmaganligi uchun amalda qo'llanilmadi. Achinarlisi shundaki, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomlarining o'z subyekt bilan kelib, kengaytirilgan birikmalar hosil qilishi hatto o'rta maktab dastur loyihalaridan ham joy oldi, ammo ilmiy grammatika talqini bu masalalarni chetlab o'tdi.

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapning birikishidan iborat deb sanaladi. Bu *Sen kelding, men ketaman* kabi gaplarga nisbatan to'g'ridir, chunki ularning har biri mustaqil ravishda gap bo'lib kela oladi: *Sen kelding. Men ketaman*. Lekin *Sen kelgach, men ketaman* gapida bu qoida qo'l kelmaydi. Chunki *Sen kelgach* tipidagi gap o'zbek tilida yo'q, u faqat qo'shma gap tarkibida o'zbek an'anaviy grammatika ilmidagina gap deb tan olinadi, xolos. Voqelik (o'zbek nutqi va o'zbek ongi) bilan ilmiy grammatika orasida bunday ziddiyat fan uchun bezararday ko'rinsa-da (chunki biri fan, ikkinchisi – ong), tadrish (metodika) uchun, o'zbek, tili qurilishini millionlab bolalarga o'qitish uchun beqiyos murakkabliklar tug'dirdi. Shuning uchun ilmiy grammatika bu chigallikni hal etish choralarini ishlab chiqdi.

An'anaviy sintaksis, asosan, mazmunga tayanib ish ko'rganligi tufayli darslik va qo'llanmalarda misol tariqasida berilgan ko'p qo'shma gaplarga bir tomonlama yondashildi. Natijada ziddiyatlar tug'ildi. Ergash gapli qo'shma gap haqida fikr yuritilganda, ergash gap bosh gapning biror bo'lagini izohlab, unga muqobil bo'lib keladi deyiladi. Va Kim mehnatni sevsa, uning ishi rivoj topadi kabi misollarni tahlil qilib, ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan qaratqichli aniqlovchini (uning) izohlab kelgan ergash galli qo'shma gapni sodda ergash gap nomustaqil sodda gaplik xususiyatini yo'qotib, yoyiq qaratqichli

aniqlovchiga o'tishini (Mehnatni sevganning ishi rivoj topadi) ta'kidlaymiz. Dushman taslim bo'lmasa, uni yo'q qiladilar tipidagi gaplarga kelganda, yuqoridagi fikrning aksini aytib, ya'ni unga zid borib, asosan, mazmunga tayangan holda shart ergash gapli qo'shma gap deyildi. Hege buni vositasiz to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap deyish mumkin emas edi? Nazarimizda, bu xil gaplarga yo sinkretik qo'shma gaplarning bir turi deb qarash kerak yoki qandaydir boshqacha baholash (shakl va mazmun planida ikkiga bo'lib o'rganish) lozim.

Gapning bir va ikki tarkiblilik nazariyasi an'anaviy sintaksisga rus tilshunosligidan kirgan va bu konsepsiya substansial yo'nalishidagi nazariyadan tubdan farq qiladi.

O'zbek tili sintaksisida qo'shma gap uchga bo'lib o'rganiladi:

- a) bog'langan qo'shma gap;
- b) ergash gapli qo'shma gap;
- v) bog'lovchisiz qo'shma gap;

Bu tasnif juda e'tizorli bo'lib, qaysi tamoyil asosida tuzilganligi aniq emas. Bir qaraganda, qismlarning o'zaro birikish usuliga ko'ra tasnif qilinganga o'xshaydi. Chunki bog'langan qo'shma gap deganda qismlari teng bog'lovchilar, ergash gapli qo'shma gap deganda qismlarning mazmunan birikishiga asosga olinadigan qo'shma gaplar, uchinchi turida esa teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan birortasining ham qo'shma gap qismlarini birlashtirishda ishtirok etmasligi tushuniladi. Tasnif shu tarzda tuzilar ekan, bir qancha qonuniy savollar tug'iladi. Chunonchi, agar shu tasnif qo'shma gap qismlarining birikish usuliga asoslanib tuzilgan bo'lsa, komponentlari bir paytning o'zida ham teng, ham ergashtiruvchi bog'lovchi (...va...shuning uchun...)lar yordamida birikkan qo'shma gaplar qaysi turga kiradi? Nega kesimlari har xil grammatik shakllarda (- gan, -ib, -sa, -sin...) bo'lib, bosh gapga bog'lovchilarsiz birikkan qurilmalar ergash gapli qo'shma gaplar deyiladi? Qo'shma gapning bog'langan va ergash gapli deb ikkiga bo'linishida nega ikki qismli qo'shma gaplar asos olinadi? Ikki qismli qo'shma gaplarning ikki predikativ birlikning mazmun va ohangga ko'ra birikuvidan

tuzilgan turi asosga olindi-yu, faqat ohang yordamida tuzilgan qo'shma gaplarga ahamiyat berilmadi.

III bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki o'zbek tilshunosligida gap bo'lagini aniqlashda qaysi turkum bilan ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i va gapdagi boshqa bo'laklarga nisbatan tobe-hokim munosabati muhim rol' o'ynaydi. Nutq lingvistikasiga e'tibor kuchayayotgan ayni vaqtda nutqning cheksiz reallashishlari bilan bog'liq holatlarda mavjud mezonlargagina tayanish gap bo'laklarini to'g'ri ajratishda ayrim muammolar mavjulichini ko'rsatmoqda.

Keyingi tadqiqotlarda "sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a'zolarining qanday so'zlardan ifodalanishigina emas, balki shu a'zolarining qanday sintaktik pozitsiyada (vaziyatda) kelishi ham gapning mazmuniy tuzilishi uchun ahamiyatli" ekaniga alohida e'tibor berilmoqda¹. So'z turkumlari tabiatan biror sintaktik vazifada kelishga xoslangan bo'ladi. Bu qonuniyat mavjud darsliklarda ham ifodasini topgan: "Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlarga bajaradi"². Biroq ba'zan gap bo'lagi bo'lishi uchun mustaqil so'z turkumi bo'lishning o'zi yetarli emas. So'z mustaqil bo'lsa-da, nutqda reallashmasa, ya'ni gap tarkibida biror bo'lakka nisbatan tobe-hokim mavqeni egallamasa, gap bo'lagi hisoblana olmaydi. Gap kesimini qaysidir bo'shlig'ini to'ldirib kelayotgan birlik qanday so'z bilan ifodalangan bo'lishidan qat'iy nazar gapda bo'lak mavqeida kelishi mumkin: *Albatta* – modal so'z. *Ammo* bog'lovchisi yordamida bog'langan. *Lekini* ham bor. *Yo'qni* yo'ndiradi. *Yo'q* gapni qayerdan olding. Bizga *diyodor* kerak. Ushbu jumalalarda *albatta*, *ammo*, *lekin*, *yo'q*, *kerak* so'zlarning mustaqil so'z emasligi ularning gapdagi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishib biror bo'lak vazifasida kelishiga monelik qilmaydi.

¹ H.Usmonova. "O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi" f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.

² Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. –144

Odatda, gap bo'laklari haqida gap borganda eganing bosh kelishikda, aniqlovchining qaratqich kelishigida, to'ldiruvchining tushum kelishigida bo'lishiga ta'kid beriladi: "Ega, asosan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi"¹.

J.Omonturdiyev so'zlarning gapdagi bunday funksiyasi doimiy emasligi, chunki gapda biror bo'lak deb qaraladigan so'z davr o'tishi bilan forma tomondan o'zgarib, oldingi vazifasini bajarmaydigan bo'lib qolishi mumkinligini aytadi va o'z fikrini hozirgi o'zbek tilidagi *Men borishim kerak* gapining aslida *mening borishim kerak* formasida bo'lganligi bilan izohlab beradi². Shuningdek, ***O'qimaymaning nimasi. Boramandan gapir. Bordim – nima, bormadim – nima. Undan yana bir so'rarim bor. Ko'rganim – shu. Kelar-kelmasingni ayt*** tipidagi gaplarni bo'laklarga ajratishda maktab darsliklarida berilgan "Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi"³ qoidasiga asoslanilsa, *o'qimaymaning, bordim, bormadim, so'rarim, ko'rganim* so'zlarini ega, *kelar-kelmasingni, boramandan* so'zlarini to'ldiruvchi sifatida ajratish osonlashadi.

Ko'rinadiki, gap uchun shu gapni tashkil etgan qismlarning tashqi tomoni qanday ahamiyatga ega bo'lsa, ularning gap kesimiga nisbatan egallagan vaziyati ham shunchalik ahamiyatlidir.

Mavjud talqinlarda uyushiq bo'laklar xarakterlanar ekan, asosan, sintaktik mavqe va morfologik shakllanish jihatidan bir xil bo'lishi, bir xil so'roq qabul qilishi, sanash ohangi bilan aytilishi, gapning bitta bo'lagiga tobelanishi va doim bir xil sintaktik vazifada kelishi sanab o'tiladi⁴.

Sanash ohangi bo'lmasa, sintaktik mavqe, grammatik shakl va ifodalanish jihatlari bir xilligiga qaramay ular uyushiq sanalmaydi. Nutqda sifatlovchi va

¹ Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. –144 В-66

² Ж.Омонтурдиев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. –Т.: "Ўқитувчи", 1988. 209 б. В-33

³ Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. –144 В-66

⁴ А.Ғуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. 256 б.; Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010. 414 b.

hollarning uyushmagan holda takror kelishi ko‘p kuzatiladi. Masalan, *Sadaf dastali pichoq. Katta tajribali o‘qituvchi. Chiroyli paxta gulli piyola. Ertaga ertalab yo‘lga chiqaman. Bugun kechqurun ketyapman. 1994-yil 14-sentabrda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tug‘ilganman.* Ushbu gaplardagi **sadaf dastali, katta tajribali, chiroyli paxta gulli, ertaga ertalab, bugun kechqurun, 1994-yil 14-sentabrda, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida** kabi sifatlovchi aniqlovchi, o‘rin va payt hollari gap tarkibida birdan ortiq qo‘llangan bo‘lsa-da, sintaktik vaziyatiga ko‘ra ularni uyushiq bo‘lak deb qaray olmaymiz.

Biroq nutqimizda shunday tenglanish qatorlari ham uchraydiki, ularning barcha belgilari uyushiq bo‘laklarga mos keladi, ammo uyushgan bo‘laklar uchun eng muhim belgi – bir xil vazifada kelmaydi. Masalan, **Hech kim, hech qachon, hech narsa unutilmaydi.** Ushbu gapdagi **hech kim, hech narsa** birliklari sintaktik pozitsiya nuqtai nazaridan uyushgan egaga teng keladi. **Hech qachon** ilmiy jihatdan hol. Biroq uning pozitsiyasi – vaziyati uyushgan ega sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Demak, tenglanish qatoridagi so‘zshakllar sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo‘lmasligi ham mumkin. Ya’ni ular bir hokim uzvga tobelansa va o‘zaro teng aloqaga kirishsa-da, sintaktik vazifa jihatdan farqlanishi mumkin: **Har joyda va har kimga sen haqingda gapirdim.** Bu gapdagi **har joyda** va **har kimga** so‘zshakllari o‘zaro teng aloqaga kirishgan, lekin biri gap kengaytiruvchisi (**har joyda**), ikkinchisi esa so‘z kengaytiruvchisi (**har kimga**). Bu yerda uyushgan bo‘laklarning har biri kesimdagi har xil lisoniy-sintaktik o‘rinlarni to‘ldiradi. Bundan sintaktik mavqe (pozitsiya, vaziyat), grammatik shakl bir xilligi va uyushtiruvchi ohangga egalik uyushgan tenglanish qatorining zaruriy belgisi degan xulosa kelib chiqadi.

XULOSA

Ishdan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Soʻz turkumlari tabiatan biror sintaktik vazifada kelishga xoslangan boʻladi. Bu qonuniyat mavjud darsliklarda ham ifodasini topgan. Biroq baʼzan gap boʻlagi boʻlishi uchun mustaqil soʻz turkumi boʻlishning oʻzi yetarli emas. Soʻz mustaqil boʻlsa-da, nutqda reallashmasa, yaʼni gap tarkibida biror boʻlakka nisbatan tobehokim mavqeni egallamasa, gap boʻlagi hisoblana olmaydi.

Demak, gap kesimini qaysidir boʻshligʻini toʻldirib kelayotgan birlik qanday soʻz bilan ifodalangan boʻlishidan qatʼiy nazar gapda boʻlak mavqeida kelishi mumkin: *Albatta* – modal soʻz. *Ammo* bogʻlovchisi yordamida bogʻlangan. *Lekini* ham bor. *Yoʻqni* yoʻndiradi. *Yoʻq* gapni qayerdan olding. *Bizga diydor kerak*. Ushbu jummalarda *albatta*, *ammo*, *lekin*, *yoʻq*, *kerak* soʻzlarning mustaqil soʻz emasligi ularning gapdagi boshqa soʻzlar bilan munosabatga kirishib biror boʻlak vazifasida kelishiga monelik qilmaydi.

2. Odatda, gap boʻlaklari haqida gap borganda eganing bosh kelishikda, aniqlovchining qaratqich kelishigida, toʻldiruvchining tushum kelishigida boʻlishiga taʼkid beriladi. Nutqda baʼzan *Oʻqimaymaning nimasi. Boramandan gapir. Bordim* – nima, *bormadim* – nima. *Undan yana bir soʻrarim bor. Koʻrganim* – shu. *Kelar-kelmasingni* ayt tipidagi gaplar ҳам учрайдики, бундай гаплар таркибидаги *oʻqimaymaning*, *bordim*, *bormadim*, *soʻrarim*, *koʻrganim* soʻzlarini ega, *kelar-kelmasingni*, *boramandan* soʻzlarini toʻldiruvchi sifatida ajratishga ularning grammatik shakli monelik qiladi. Biroq gap markazi – kesimga nisbatan munosabati ularni shu tarzda gap boʻlaklariga ajratishga monelik qilmaydi.

Demak, gap uchun shu gapni tashkil etgan qismlarning tashqi tomoni qanday ahamiyatga ega boʻlsa, ularning gap kesimiga nisbatan egallagan vaziyati ham shunchalik ahamiyatli.

3. Mavjud talqinlarda uyushiq boʻlaklar xarakterlanar ekan, asosan, sintaktik mavqe va morfologik shakllanish jihatidan bir xil boʻlishi, bir xil soʻroq qabul qilishi, sanash ohangi bilan aytilishi, gapning bitta boʻlagiga tobelanishi va doim

bir xil sintaktik vazifada kelishi sanab o‘tiladi. Sanash ohangi bo‘lmasa, sintaktik mavqe, grammatik shakl va ifodalanish jihatlari bir xilligiga qaramay ular uyushiq sanalmaydi. Nutqda sifatlovchi va hollarning uyushmagan holda takror kelishi ko‘p kuzatiladi. Masalan, *Sadaf dastali pichoq. Katta tajribali o‘qituvchi. Chiroyli paxta gulli piyola. Ertaga ertalab yo‘lga chiqaman. Bugun kechqurun ketyapman. 1994-yil 14-sentabrda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tug‘ilganman.* Ushbu gaplardagi *sadaf dastali, katta tajribali, chiroyli paxta gulli, ertaga ertalab, bugun kechqurun, 1994-yil 14-sentabrda, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida* kabi sifatlovchi aniqlovchi, o‘rin va payt hollari gap tarkibida birdan ortiq qo‘llangan bo‘lsa-da, sintaktik vaziyatiga ko‘ra ularni uyushiq bo‘lak deb qaray olmaymiz.

Biroq nutqimizda shunday tenglanish qatorlari ham uchraydiki, ularning barcha belgilari uyushiq bo‘laklarga mos keladi, ammo uyushgan bo‘laklar uchun eng muhim belgi – bir xil vazifada kelmaydi. Masalan, *Hech kim, hech qachon, hech narsa unutilmaydi.* Ushbu gapdagi *hech kim, hech narsa* birliklari sintaktik pozitsiya nuqtai nazaridan uyushgan egaga teng keladi. *Hech qachon* ilmiy jihatdan hol. Biroq uning pozitsiyasi – vaziyati uyushgan ega sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Demak, tenglanish qatoridagi so‘zshakllar sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo‘lmasligi ham mumkin. Ya’ni ular bir hokim uzvga tobelansa va o‘zaro teng aloqaga kirishsa-da, sintaktik vazifa jihatdan farqlanishi mumkin: *Har joyda va har kimga sen haqingda gapirdim.* Bu gapdagi *har joyda* va *har kimga* so‘zshakllari o‘zaro teng aloqaga kirishgan, lekin biri gap kengaytiruvchisi (*har joyda*), ikkinchisi esa so‘z kengaytiruvchisi (*har kimga*). Bu yerda uyushgan bo‘laklarning har biri kesimdagi har xil lisoniy-sintaktik o‘rinlarni to‘ldiradi. Bundan sintaktik mavqe (pozitsiya, vaziyat), grammatik shakl bir xilligi va uyushtiruvchi ohangga egalik uyushgan tenglanish qatorining zaruriy belgisi degan xulosa kelib chiqadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.Nurmonov, N.Ortiqova. Gapning pog'onali tuzilishi va gapni bo'laklarga ajratish tamoyillari. "O'zbek tili va adabiyoti". 2002 yil, 3-son
2. A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova. Gap bo'laklari kategoriyasi va uning tashkil etuvchilari haqida. "O'zbek tili va adabiyoti". 2008 yil, 1-son
3. A.Nurmonov. Gap va uning bo'laklari haqida mulohazalar. "O'zbek tili va adabiyoti". 2009 yil, 2-son
4. Abdusamatov R.A O'zbek tilida gap bo'laklarining noamaliy mavqei masalasi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Samarqand, 1994. - 23 b.
5. Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. - 1991. - № 5. - B. 42-46.
6. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1994. - 21 b.
7. Ahmedov A. O'zbek tilida gapning kommunikativ turlari. - Toshkent: Fan, 1979. - 170 b.
8. Akramov. SH. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol. ([WPM] valentligi aspektida): Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1997. - 21 b.
9. David Crystal. Linguistics, Pensum Books, 1977.-154p.
- 10.H.Baqoyeva. Gapning mazmuniy va shakliy tuzilishi. "O'zbek tili va adabiyoti". 2002 yil, 2-son
- 11.H.Usmonova, O.Tojiyev. Gapni sintaktik pozitsiya asosida o'rganish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1999. – №3. – B. 35-37.
- 12.H.Usmonova. Ega vaziyatidagi murakkab nomlar // O'zbek tilining semantik xususiyatlari masalasiga doir. – Namangan, 1996. – B. 50-53.
- 13.H.Usmonova. Gapni bo'laklarga ajratish tamoyillari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1998. – №5. – B. 57-59.
- 14.H.Usmonova. Gapning grammatik va mazmuniy tuzilish birliklari o'rtasidagi munosabatlar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2000. - №2. – B. 64-65.
- 15.H.Usmonova. Gapning shakliy tuzilishi va uni qismlarga bo'lish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1994. -№5. – B. 56-60.

- 16.H.Usmonova. Oliy maktabda sintaksis o‘qitishning dolzarb muammolari // Til va adabiyot ta’limi. - Toshkent, 2000. – №1. – B. 7-8.
- 17.H.Usmonova. Subyekt-predikat tuzilishining o‘zbek tilida ifodalanish yo‘llari // O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2001. - №5. – B.80-82.
- 18.H.Usmonova. O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion tadqiqi. (Monografiya). –Toshkent: Fan, 2005. –163 b.
- 19.H.Usmonova. “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi” f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. T., 2009. 39 b.
- 20.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: “ILM ZIYO”, 2010. –160 b.
- 21.Ibrohimov T. Gapning bosh bo‘laklari: Filol. fan. nom.... dis. avtoref. - Toshkent, 1955. - 21 b.
- 22.Inoyatov S.B. O‘zbek tilida predikativ munosabat: Filol. fan. nom. dis. avtoref. - Toshkent, 1999. - 22 b.
- 23.Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili I-II qism. T., 2004.
- 24.Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 2005.
- 25.Linguistics typology. Morphology and Syntax. Longman. London. New York, 1988.-284p.
- 26.Linguistics, An Introduction to Language and Communication. London, 2001.- 200p.
- 27.“Aspects of language” by Dwight Bolinger, 1978.-250p.
- 28.“Language” by Bloomfield, 1933.-320p.
- 29.Lutfullayeva D. Gapni semantik- sintaktik qoliplashtirish muammolari. - Toshkent: Fan, 2005. - 137 b.
- 30.M.Ochilova. “Kesim” terminining defnitsiyasi. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2005 yil, 3-son
- 31.M.Qurbonova. Kesimlik shaklidagi shaxs-son aktanti va uning agens valentligiga munosabati. ”O‘zbek tili va adabiyoti”. 2008 yil, 3-son

32. Mahmatqulov S. O‘zbek tilida predikativ sintagmaning transformatsiyalanishi: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. - Toshkent, 2004. - 50 b.
33. Mahmudov N. Ergash gaplarning tabiati va tasnifi masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 1991. - №3. - B. 14.
34. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1986. - № 6. - B. 28-31.
35. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. T., “O‘qituvchi”, 1984.- 147b.
36. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - 230 b.
37. Matyoqubova D. O‘xshatish qurilmali gaplarda komponentlarning o‘zaro semantik munosabati // O‘zbek tili va adabiyoti. 2004. - №3. - B. 76-78.
38. Mirtojdiyev M. Kechim ifodalagan kesim obyektining ega vazifasini o‘tashi // O‘zbek tili va adabiyoti. - 2003. - №2. - B. 51-55.
39. N. Mahmudov. “Kesimning gapdagi maqomi”. O‘zbek tili va adabiyoti”. 2009 yil, 1-son
40. Nazarova S.N. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: Filol. fan. nomz. diss. avt.-Toshkent 1997, - 21 b.
41. Nazarova. S .So‘z birikmalarini formal-funksional tahlili muammolari. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2002 yil, 6-son
42. Ne‘matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. T., “Universitet”. 1999. - 55 b.
43. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. - Toshkent. 1988. -99 b.
44. Nurmonov A. Sintaksis / Tanlangan asarlar. 3 jild. 3-jild. – Toshkent, 2012, 191-238-b.
45. Nurmonov A. S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. Ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2013-yil; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б.
46. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 b.

- 47.O.Bozorov. Gapning kommunikativ tuzilishi. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2002 yil, 4-son
- 48.Ortiqova N. Gap tuzilishida aniqlovchining o‘rni: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Farg‘ona, 2005. - 23 b.
- 49.Qurbonova M va b. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. T.: Universitet.2004
- 50.Qurbonova M.M. Bosh bo‘laklar talqiniga doir. T., “Universitet” 1998.
- 51.Qurbonova M.M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. Sodda gap sintaksisi uchun materiallar. T., “Universitet”, 2002.
- 52.Raupova L. O‘zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WpM-WpM] qurilishli gaplar: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1999. - 26 b.
- 53.Sayfullayev A. R. Hozirgi o‘zbek tilida gap bo‘laklarining semantikasi va grammatikasi. - Toshkent: Fan, 2000.
- 54.Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. –B. 414.
- 55.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, T.: O‘qituvchi, 1992.
- 56.Usmonova H. O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion tadqiqi: Filol.fan. d-ri ... dis.avtoref. - Toshkent. 2007. - 45 b.
- 57.Shoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. -T.: O‘qituvchi, 1980. -447 b.
- 58.Абдурахмонов F.A. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. - T.: Ўқитувчи, 1996. – 248 б.;
- 59.Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Л.,1973.150с.
- 60.Акрамов Т. Именное сказуемое в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент. 1967. - 26 б.
- 61.Артюнова Н.Д. Синтаксис. В кн. Общее языкознание.- М., 1972.170с.
- 62.Башманов М. Изучение членов предложения узбекского языка в дихотомии ”язык-речь”. Уровень языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1991. - 24 с.

- 63.Баҳриддинова Б. Фейл луғавий шакллари тизими (Тур категорияси): Филол. фанлари номзоди дис... – Самарқанд, 2002. – 131 б.
- 64.Бозоров О.О. “Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши”, Номзодлик диссертацияси
- 65.Виноградов В.В. Исследование по русской грамматике.М., 1988,220с.
- 66.Гак В.Г. О семантическом инварианте предложения.-Проблемы синтаксической семантике. Матер. Науч. Конф.М.,1967.-280с.
- 67.Гумбольдт В.Труды по языкознанию.М.,1984.-260с.
- 68.Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Ташкент, 1984. - 45 б.
- 69.Махмудов Н. Семантика ва синтактик позиция. Ўзбек тили ва адабиёти. 1983
- 70.Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз ... дисс. Бухоро. 1995, - 144 б.
- 71.Мещанинов И.И. Структура предложения.М.,1898.-254с.
- 72.Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. - Л.: Изд. Наука, 1978. - 387 с.
- 73.Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков// Сов.тюркология. 1976. -№3. -С. 31-36.
- 74.Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Т.: Изд. Фан,1989.-191 с.
- 75.Нурманов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. - Ташкент: Фан, 1982. - 152 б.
- 76.Нурмонов А.Н. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: Янги аср авлоди, 2001.
- 77.Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1988. 209 б.
- 78.Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. – 144 б.

79. Она тили ва адабиёт. Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун дарслик. Тўлдирилган 6-нашр. А.Рафиев. – Т.: “Шарқ”, 2013. –367 б.
80. Она тили. 6-синф учун дарслик. Н.Махмудов ва бошқ. – Т.: “Тасвир”, 2013. –208 б.
81. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1938.
82. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. I-II. – М., 1988.
83. Распопов И.И. Сказуемое как конструктивный центр предложения // Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков.– Л., 1975; Юрченко В.С. Сказуемое (на материале русского языка) // ВЯ. – М., 1975, № 6.
84. Расулов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар. – Т.:, 1974. – И. 173
85. Сайфуллаева Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. -Т.: Фан, 1984. - 128 с.
86. Сайфуллаева Р., Абузалова М. Гапнинг энг кичик қурилиш қолиплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1991.- № 5.-Б. 42-47.
87. Сафаров Ш. Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. Ташкент, Фан. 2007.-230б.
88. Сизов И.А. Что такое синтаксис? - М., 1966.
89. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. Издание 2-ое, дополненное. - М.: Наука, 1977. - 344 с.
90. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. М., 1988.-280с.
91. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун. 3-нашри. - Т.: Ўзбекистон, 1992. - 399 б.
92. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. М.-Л., 1941.-320с.
93. Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ. Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. Б–116-117
94. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол.фан. док. дис.. автореф.-Т.2001.- 47 б.

95. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўқитувчи, 1961.
– 315 б.; 1975; 1987 ва бошқ.
96. Ғуломов А.Ғ. Содда гап. Тошкент.1955.-250б.
97. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Академик лицей ва касб-хунар коллежларининг 3-курс талабалари учун дарслик. А.Нурмонов ва бошқ.–
Т.: “ИЛМ ЗИЁ”, 2010. –160 б.
98. Ҳожиёв А., Маҳмудов Н. Семантика ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1987.-№2 .